

Ezgulik

Asling kabi ko'rin yoki
ko'ringaning kabi bo'l

Adabiy-badiiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va ommabop gazeta

Gazeta 2023 yil 1 fevraldan chiqa boshladi.

2024 yil 15 avgust №15-son (39)

ZOMIN SEMINARI TAASSUROTTLARI



Uzoq kutilgan kunlar yaqin qolganda, o'zini benihoya baxtiyor sezadi, kishi. Zominga yetib borar ekanman, o'zimni go'yo tabiat bilan uyg'un, bir butundek his etib, rohatlana boshladim.

Ko'ngilning tub-tubiga qadar ilhom urug'lari qadaldi. Tabiat mo'jizasi — so'lim O'rikli soy bag'rida esa qalamim beixtiyor "tilga kirdi".

Ibrohim G'afurov, Usmon Azim, Zebo Mirzo, Nodir Jonuzoq, Botirjon Ergashev, Ma'mura Zohidova kabi ustozlar sabog'i bizga ko'zgu vazifasini o'tadi. Ayniqsa, she'riyat sho'basida ustoz ijodkor Eshqobil Shukurdan olingan maslahatlar oltinga teng bo'ldi. Mashg'ulotlar davomida yutuq va kamchiliklarimni anglab yetdim, ruhan chiniqdim. Ustozning: "Adabiyot — ulug' karvon. Bu yo'lga kirildimi, haqiqiy adabiyot bilan, haqiqiy she'riyat bilan shug'ullanish kerak", degan so'zlari hamon yodimda.

Viqorli tog'lar qo'ynida kechgan she'riyat oqshomlari menga uzoq vaqt ilhom bag'ishlab turadi.

Mahzuna HABIBOVA,
"Ezgulik" muxbiri



IJODKORLAR, SHOSHILING!

Respublika "Ezgulik" gazetasida ijod namunalaringizni chop ettirib, ijodiy faolligingizni tasdiqlovchi rasmiy SERTIFIKATga ham ega bo'ling!

GAZETAMIZGA:

- maqola;
- she'r;
- hikoya;
- ertak;
- chizilgan rasmlar qabul qilinadi.

* Shoshiling! 16-sonimizga qabul boshlandi.

* Ijod namunalaringizni @obid_85 ga yuboring. Kanalimiz va guruhga ulaning:

* t.me/ezgulikgazeta

* <https://t.me/ezgulik85>



Ekologiya tizimlari, yaratilgan muhitni atrofda dunyoda o'rganish uchun ularning me'yoriy ufqlaridan ko'prog'iga erishganligini, quruvchilarning jasorati deb tan olishadi. Qanday qilib bizga ekologiya jarayonlarining bilimlari imoratlarining hayot davrini dinamik yo'llardagi muhitning binolarini qurish va qayta ishlashi bilan yaxshiroq sozlashga yordam berishi mumkin? Ekologlar tabiatshunos olimlarning e'tiborini molekulalardan biologik hujayralarga, organizmlarga, aholiga, jamoalarga, manzaralarga, biosferaga jalb qilish uchun o'tgan yarim asr davomida shunga o'xshash kurashni olib borishmoqda. Mutaxassislar doimo bir-birlarining nuqtai nazarlarini asli holga qaytarib, yana yangilanishini xohlashadi. Faoliyatning atrofmuhitga qanday moslashayotganini baholash masalasi oson va yanada qiyindir. Bu osonlashmoqda, chunki bo'lib o'tgan bir qator krizislar insonlarning uylariga zararli oqibatlar olib kelganidan so'ng, insonlar yanada ko'proq atrof-muhitni tushunib yetishishni xohlashmoqda. Aslidan ko'ra, ajablanish va noaniqlik muqarrar tuyulgan nuqtadan yaqinroq ko'rilganda, bu yanada murakkab tasvimi ko'rsatadi va shuning uchun ham qiyindir. Ko'pchilik harakat qilish kerak, deb hisoblashi haqida fan bizga ishonch bera olmasligi mumkin. Ammo bu bizga, bizning savollarimiz va bizning harakatlarimizni yanada dono yo'l bilan dinamik va murakkab biosferamizni tadqiq qilishimiz kerakligini shakllantirishda yordam beradi.

QURILISH EKOLOGIYASINING ASOSLARI

Bu zamonning qiyofasi nima? Biz biologik murakkablikni o'sib borayotgan o'rnini ko'proq tan olganimiz sari sanoat uskunalarining ahamiyati yo'qolib bormoqda. Qanday qilib biz materiallar, oziq moddalar, suv va energiya davrlarining to'qimasidagi millionlar organizmlar, biologik turlar va jamoalarning o'zaro aloqasini tunishni boshlashimiz mumkin? Amerika va Angliya (Charles J. Kibert, Jan Sendzimir, G. Bradley Guy) ekologlari bu masalani tizimlar nuqtai nazaridan muhokama qilishadi. Ular bizga bu g'oyalarni inson boshpanasini yaratish, foydalanishga tiklash va hayotga qaytarish jarayonini boshqarishda ishlatishni taklif etishni o'rniga, tizimlar (ekologik va boshqalar) qanday qilib qurilish va vayrona bo'lish davrida saqlanib qolishi haqidagi fikrlar xilma-xilligini taklif etishadi.

Quyidagi ekolog olimlar fanlar tizimidagi tabiiy va inson tizimlarini tushunishni qo'llanishiga noyob tajribani olib kirishdi. N.T.Odum meteorologiya va geokimyodan boshlab, bugun ekologiya tizimlari atalmish fanga asoslarni solgan. N.T.Odum "...oxirgi ellik yil davomida tizim fikrlashiga qanday intizomlarni kiritmaganini bilish talabchan topshiriq bo'lardi." deydi. Oddiylik va ravshanlik bilan orasta ishlaydigan yondashishga to'qnashayotgan ko'p sohalar bir avlod ekologlar taraqqiyoti uchun fundamental bo'lib, chuqur va har tomonlama tushunishni aks ettiradi. Jeyms Key qanday qilib, tizimlar o'z tuzilmalarini turli sifat energiyalarining oqimlari va qayta aloqalari fikrsiyasi sifatida rivojlantirishi haqidagi nazariyani ilgari surishi uchun ishlamoqda va bunday g'oyalarni tajribaga asoslanib boshqarishdagi hududiy yerlarni rivojlantirishda qo'llaydi.

Tim Allen tizimlar qanday rivojlanishi va o'zgarishi haqida test sifatida o'simliklar ustida tajribalar olib borgan va ko'p korxonali (ko'p darajali ko'rsatkich) tizimlar to'zilmalarni tushuntirish uchun shajara (ierarxik) nazariyasini rivojlanishiga yetakchi homiy bo'lgan. Garri Peterson olov qanday qilib o'rmon landshaftining naqshlarini shakllantiradi va qanday qilib hayvonlar naqshlarga javoban harakatlanishining g'oyasini tekshirish uchun kompyuter modellashtirishni ishlatadi. Uning modellashtirish ishi Floridadagi (AQSh) uzun bargli qarag'ay o'rmon tajribaga asoslanib boshqaruvning turli g'oyalari uchun sinov maydoni bo'lgan.

Qurilish ekologiyasining aniqlanishi. Sun'iy atrof-muhitning qurilishi va foydalanishi tabiiy atrof-muhitga iqtisodiyotdagi o'rniga qaraganda nomutanosib ta'sir o'tkazadi. Garchi bu AQShning yalpi ichki mahsulotining 8% tashkil etsa ham, qurilish sohasida qazib chiqarilgan materiallarning 40% sarflaydi. Umumiy yerga ko'miladigan chiqindilarning uchdan birini chiqaradi va o'zining ishi uchun milliy energiya iste'molini 30% tashkil etadi. Sanoat sohasining muvozanatini saqlash manbalari ishlatish yo'llarining fundamental o'zgarishlarga va qurilish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan sanoat jarayonlarining chiqindilariga taalluqli past tan narxli mahsulotlarga bog'liqdir. Qurilish boshqa sanoat turlari kabi tabiiy tizimlarning metapolik xatti-harakatini kuzatishdan yutib, muvozanatni saqlash elementlarining murakkab yig'indisining xususiyati bo'ladi. Tabiatni o'z sanoati uchun o'rganayotgan, paydo bo'layotgan sanoat ekologiyasining sohasi sun'iy atrof-muhitni yoki muvozanatli qurilishning ma'nosini anglash qobiliyatini beradi.

Shaharsozlikni loyihalashda hududlarning tabiiy o'ziga xos xususiyatlarining saqlanishi va aholining ijtimoiy me'yorda yashashida ekologik xavfsizlik va shinamlikning ta'minlanishi asosiy muhim vazifalar hisoblanadi. Zamonaviy muxandis quruvchi va menedjer ekologik xavfni kamaytirish va tabiiy zaxiralarini hisobga olinishni bilishi, ekologik muammoni tushunishi o'zida bo'lmasa, shaharsozlik sohasida muvaffaqiyatli ishlay olmaydi. Ekologik shaharsozlikni loyihalashning asosiy qonun-qoidalarini "ziyon yetkazmaslik" qoidasi bo'lishi kerak.

Azamat RAVSHANOV,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 1-3 Kimyo 21-guruh talabasi

Mehr – insonning eng yuksak tuyg'ularidan biri bo'lib, rahm-shavqat, muruvvat, odamiylik kabi fazilatlar doimo ulug'lanib kelingan. Odamiylik kishining boshqa odamlarga, urug'-aymog'iga mehr-shavqat ko'rsatishi, yaxshilik qilishni insonparvarlik munosabatlarida bo'lishini taqozo etadigan fazilatdir.



DILSHODBEKNING TA'LIM Olishiga IMKONIYAT YARATILDI

Mehr-muruvvat tushunchasiga, muhabbat, sadoqat, oqibat kabi tushunchalar kiradi. Bularning har biriga, xalq donishmandligi va milliy qadriyatlar o'z ifodasini topgan, muruvvat esa saxovat va rahmdil, o'zgalarga shavqatli bo'lishni, ochiq qo'llik va bag'rikenglikni anglatadi.

Yaxshi muomila samimiy munosabat qalblarga sevinch bag'ishlasa, qo'rslik va manmanlik kibr kishilarga aziyat yetkazishini yaxshi anqlaymiz. Sevinchga to'la qalblar yaxshilik, ezgulik istaydi.

Shirinso'zlik va muloyimlik bilan muomila qilgan inson nafaqat o'zini, balki suhbatdoshining qalbini ham charog'on etadi. Ko'rishganda salomlashish, chaqirganda labbay deyish, xayrlashganda omonlik tilash xalqimizga xos ezgu fazilatlarandir. Zero insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, ahil-inoqlikning ziyoda bo'lishi, birinchi navbatda, odamlar bilan muloqot qilishda xushmuomilalikka bog'liq. Yonizdagi insonga baho berishda, eng avvalo uning muomilasiga, odamlar bilan munosabatiga e'tibor qaratamiz.

Chiroyli hulq va yaxshi muomila odamiylik ziyatidir. Xalqimiz kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilar ekan, to'ylar qilsam, odamlarga ehson qilsam, deb hamisha

xayolidan o'tkazib turadi.

Bir-birlarining haqlariga duo qilganda ham topganing to'ylarga buyursin, deyishlik odat bo'lib qolgan, chunki ularga ochiqqo'l bo'lishlik ajdodlardan meros bo'lib qolgan. Jondor tumanidagi "Ko'liyon" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Dilshodbek Sadriddinov 12 yoshda. U bolaligidan nogiron. Bir yil davomida Dilshodbekning ota-onasi farzandi uchun elektron aravacha olishi hamda bu orqali jigarbandini darslarga uzluksiz ishtirok etishini ta'minlanishiga erishmoqchi bo'lishgan. Ammo, muammo muammoligicha qolgan.

Joriy yilning iyun oyidan mahallada kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodim vazifasiga tayinlandim. O'tkazgan xatlovlar natijasida, Dilshodbekning muammosi o'rganilib, uning elektron aravachaga muhtojligi aniqlandi.

Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga ushbu murojaat yetkazildi, tez fursatda muammoga ijobiy yechim topildi. Ya'ni 15 kun ichida Dilshodbekka elektron aravacha yetkazib berildi.

Mana endi Dilshodbek maktabga tengdoshlari qatori borib, bemaol qatnay oladi, hamda uning orzularidan biri bo'lgan – xorijiy tillar hamda matematika fanlaridan qo'shimcha kurslarda ishtirok etadi.



**Javlonbek TOG'AEV,
"Ko'liyon" mahallasida kompleks ijtimoiy xizmat
ko'rsatuvchi xodim**

UCH NAFAR BOLASI BO'LSA, KO'P BOLALI OILA TOIFASIGA KIRADIMI?



Qonunchilikka ko'ra, to'rt nafar va undan ortiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila ko'p bolali oiladir.

Bunda, agar to'rt nafar va undan ortiq bolalaridan bir nafari yoki undan ko'prog'i ta'limning kunduzgi shaklida (o'rta maxsus va professional, oliy ta'lim) ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan hamda yigirma ikki yoshga to'lmagan bo'lsa, bu oila ham ko'p bolali oila deb hisoblanadi.

Bahriddin BOLTAEV,
Romitan tuman FHDY bo'limi 1-toifa inspektori

ISH VAQTINING DAVOMIYLIGI HAFTASIGA NECHA SOAT?



Qonunchilikka ko'ra, davlat organida davlat fuqarolik xizmatchisi uchun 5 kunlik ish haftasi belgilanadi. Bunda ish vaqtining davomiyligi haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak.

Shuningdek, 3 yoshga to'lmagan bolalari bor davlat fuqarolik xizmatchilari bo'lgan ota-onasidan biriga (otanonaning o'rnini bosuvchi shaxsga) haftasiga 35 soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.

Alisher RASULOV,
Jondor tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsul'ti

FUQAROLARNING OSOYISHTALIGINI BUZSA...



Qonunchilikka ko'ra, mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratimiz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa hat-ti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik quyidagi jazo choralaridan biri qo'llanilishiga sabab bo'ladi:

BHMning 3 baravaridan 5 baravarigacha miqdorda (1 mln 20 ming so'mdan 1 mln 700 ming so'mgacha) jarima; 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq. Shuni unutmaslik kerakki, qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Umid NASIMOV,
Jondor tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsul't

KINEMATOGRAFIYA SOHASIDA ISLOHOT



“Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan fil'mlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident Qarori (PQ-209-son, 05.06.2024 y.) qabul qilindi

Qarorga ko'ra, kinematografiya sohasini yangi bosqichga ko'tarish, milliy davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi fil'mlar turkumini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024–2027 yillarga mo'ljallangan “Tirik tarix” fil'mlar turkumini yaratish dasturi (“Tirik tarix”) tasdiqlandi.

Dastur orqali vatan ozodligi va ravnaqi yo'lida kurash olib borgan buyuk sarkarda va davlat arboblarning murakkab hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis va haqqoniy ko'rsatib berish belgilandi.

Shuningdek, quyidagilar tuzildi:

- kinematografiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy komissiya (Milliy komissiya);
- fil'mlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko'maklashuvchi milliy kengash (Milliy kengash).

“Tirik tarix” dasturi doirasida:

fil'mlar ishlab chiqarish uchun kinoloyihalarni tayyorlash bo'yicha tanlov tashkil etiladi va eng yaxshi kinoloyihalar tanlab olinadi; kinoloyihalarga muvofiq fil'mlar ishlab chiqarish uchun taqdimot shaklidagi tanlovlar (pitching) asosida kinokompaniyalar aniqlanadi. Majburiy raqamli markirovkalash jarayonlari jadallashtiriladi.

Qarorga muvofiq, Kinematografiya agentligiga mahalliy va xorijiy kinokompaniyalar bilan hamkorlik (co-production) asosida “Tirik tarix” dasturi doirasidagi fil'mlarni yaratishga ruxsat berildi.

Shuningdek, “Kinochilar uyi” “O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyi” deb qayta nomlandi. O'zbekiston milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi qoshida kinematografiya sohasi uchun o'rta maxsus mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash maktabi (kinomaktab) tashkil qilinadi.

Respublikadagi oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida, o'rta maktablarda kinolektoriylar, tuman (shahar)larda joylashgan madaniyat markazlarida milliy fil'mlarning bepul namoyishlari tashkil etiladi.

Bunda, ushbu namoyishlar Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi huzuridagi axborot-mul'timedia striming platformasi (uzbekkino.uz) orqali amalga oshiriladi.

M.QOSIMOV,
Buxoro tumani adliya bo'limi bosh maslahatchisi,
SH.NABIEV,
Buxoro tumani adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsul'ti

QONUN ELEKTR ENERGETIKASI SOHASIDAGI MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLADI

Yurtboshimiz tomonidan “Elektr energetikasi to'g'risida”gi Qonun (939-son, 07.08.2024 y.) imzolandi. Elektr energetikasi sohasini davlat tomonidan tartibga solishni quyidagilar amalga oshiradi:

- Vazirlar Mahkamasi;
- Energetika vazirligi;
- Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi;
- Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi;
- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari.

Vazirlar Mahkamasi elektr energetikasi sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi. Energetika vazirligi elektr energetikasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.

Quyidagilar elektr energiyasi bozorining ishtirokchilaridir:

- elektr energiyasi bozori operatori;
- ishlab chiqaruvchi;
- elektr energiyasini saqlash tizimi operatori;
- uzatish tizimi operatori;
- markaziy xarid qiluvchi;
- treyder;
- taqsimlash tizimi operatori;
- ta'minotchi;
- iste'molchi.

Tariflar va to'lovlarni belgilash uslubiyati hamda uning asosida tartibga solinadigan tariflar va to'lovlar Energetika bozori regulyatori tomonidan belgilanadi. Qabul qilingan tariflar va to'lovlar kuchga kirishidan kamida 15 besh kun oldin e'lon qilinadi. Hech qanday tarif yoki to'lov orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy o'tgach kuchga kiradi.

Nigora Ro'ZIEVA,
Buxoro shahar 1-son FXDY bo'limi inspektori



UMR

O'tdi yelday uchib, pishqirib, shoshib,
Nelar bo'ldi, ko'rmay qoldi ko'zlarim.
Peshonam mushkladim, ko'pirib, toshib,
Kimga aytay, armon bo'lgan so'zlarim.

Umr, shiddatlisin, bunchalar tezsan?
Daryodek shovullab oqding-u ketding.
Tishli, tirnoqlisan, alamli kezsan,
Biyron tilim uzib, zabonsiz etding.

Goh shirinsan novvot, asal, qand kabi,
Darmonsan, dastingdan bezgan dillarga.
Ba'zan achchiq, kimsa hxushlamas ta'bi,
Zahmating yuklama nozik bellarga.

Oltindan emasdir umr daftarim,
Oh chekdim, charchadim, ko'rdim ko'p jabr.
Boqiy emas dunyo, hayot zargarim,
Chidayman, sinovning dushmani - sabr

Paymonam to'lganda, yurak to'lganda,
O'zimga, qalbiga berdim tasalli.
"Har nega joningni siqma, ey ko'ngil,
Na bu dardlar mangu, na va bu umr".

OPA

Xafa bo'lsam, qo'llab, qo'limni tutgan,
Dardimni eshitib, dardim unutkan,
Yupanch bo'lib, o'zi suyanchiq kutgan,
Shirinso'z, mehribon, gul yuzli opam.

Otamga, onamga mendan mehribon,
Olamda qimmatli, go'zal, qadrdon.
Qo'li gul, chiroyli, yuzlari shirmon,
O'zgarlar g'amini simirgan opam.

Ko'zlarida mehr yonar charaqlab,
Hovlisi ozoda, turar yaraqlab,
Avval Yaratganni, so'ng meni alqab,
Sajdadan bosh uzmas, duogo'y opam.

Bolalik chog'imdan, dildan o'ynatib,
O'qimasam, hisob, harf o'rgatib,
O'zga uyga kelin bo'ldingiz ketib,
Gul-u rayxonlar ham so'ldi, jon opam.

Shamolda kokili to'lg'onib, kezib,
O'rishdan qutulib, ostidan kesib,
Ko'zdagi yoshimni qoldingiz sezib,
Sochidan qasdini olgan, xon opam.

Uyimiz huvillab, qoldi bo'sh xirmon,
Yurakdagi cho'g'ning aslidir armon,
Kuyib ketdi jonim, bo'lingiz darmon,
Yo'qlab keling, sizni sog'indim, opam.

O'zidan ko'p sevgan, pochcham baxtiga,
Qora ko'zli jiyalarim taxtiga,
Sodiq bo'lib, har on sabr ahdiga,
Hamisha sog' bo'ling, mening jon opam.

Shukurillo ISMOILOV,
Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani
26-maktabning 11-sinf o'quvchisi

MO'YQALAM SEHRI

*Shabnam Oilichova Buxoro viloyati, Olot tumanidagi 7-maktabning 8-"A"
sinf o'quvchisi. U rasm chizishni juda yaxshi ko'radi.*



XX asrning suronli yillarida Andijon tomonlarga borib qolgan Sulaymon Kelginboyev ismli qozoq yigiti mahalliy aholi ichidagi Otincha ismli qizga uylanadi. U tirikchilik g'amida Turkiston o'lkasini yillar davomida oralab, o'zbek, qirg'iz, tojik turkman va rus tillarini mukammal o'zlashtiradi. Shu sababli Andijon boylaridan biri uni karvonsaroyiga ishga oladi.

XADICHA SULAYMONOVA - QALBLARDAGI MANGU XOTIRA

Xadicha Sulaymonova ziyoli oilada dunyoga keladi. Demak, har bir farzandning voyaga yetishi, unib, o'sishida oila muhitining o'rni yuqori. Buni Xadicha Sulaymonova misolida ko'rishimiz mumkin. Xadicha Sulaymonova otasining vafotidan so'ng, onasi qo'lida tarbiya topadi va maktabga boradi. Maktabda qat'iyat bilan bilimlarni o'zlashtirib, maktabni a'lo baholarga tugatadi. Xadicha onasidan dadasining qanday inson bo'lganligi haqidagi hikoyalarni eshitib, dadasi kabi ko'p til bilishni niyat qiladi. Bu davrda o'zbek zaminida vaziyat murakkab edi. 1926-yili ayollarning paranjisini yechib tashlatish uchun "Hujum" kompaniyasi boshlanadi. Shu yillarda taniqli san'atkor Nurxonning akasi iste'dodli singlisini pichoqlab o'ldiradi. Marg'ilonda Nurxonning qotili ustidan ochiq sud bo'lib o'tadi. Xadicha ham sud protsessida ishtirok etadi. Xadicha Sulaymonovaning huquqshunoslik yo'nalishini tanlashiga aynan shu voqea sabab bo'lgan. Xadicha Sulaymonova suddan so'ng xuddi shunday, ya'ni insonlarning huquqlarini, adolatni ta'minlashga xizmat qilishni xohlaydi. 1931-yili 9 yillik rus maktabini tugatib, Toshkentdagi sovet qurilishi va huquq ilmiy tadqiqot institutining tayyorlov kursiga o'qishga kiradi. 1 yil o'qigandan keyin endigina ochilgan Jahon Obidova nomidagi sovet qurilishi va huquq instituti huquq fakulteti 2-kursiga qabul qilinadi. U 1935-yilda institutni tugatadi, xalq sudyasi sifatida ish boshlaydi. Respublika Oliy sudi a'zoliciga saylanadi. U oliy sudda 3 yilga yaqin ishlaydi. 1938-yili Moskva yuridik instituti aspiranturasiga o'qishga kiradi. Professor Traynin yetakchiligida ilmiy ishga materiallar to'play boshlaydi, ammo urush boshlanib ketgandan keyin uning dissertatsiyasi himoya qilinmadi. U Toshkentga qaytib, huquq institutida 2 yil assistent, keyin jinoyat huquq kafedrasida dotsent bo'lib ishlaydi. 1945-yil 20-iyun SSR Adliya komissarligi huzuridagi butunittifoq yuridik institutida nomzodlik



dissertatsiyasini himoya qiladi. Shu yili Toshkent huquq instituti jinoiy huquq kafedrasini mudiri etib tayinlanadi. SSR oliy ta'lim ministrligi attestatsiya komissiyasi unga berilgan dotsentlik unvonini tasdiqlaydi. Xadicha Sulaymonova 1948-yili Fanlar akademiyasi yuridik institutiga doktoranturasiga yuboriladi. 1950-yil 29-dekabrda doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Yuridik fanlar sohasida sharq ayollari orasidan chiqqan birinchi fan doktori bo'lgan Xadicha Sulaymonova mazkur o'quv yurtida 1 yildan ko'proq kafedra professori bo'lib ishlaydi. 1958-yil 24-yanvarda uning rahbarligida

Toshkent sud ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Bu institutga keyinroq Xadicha Sulaymonova nomi beriladi. Institut hozirgi paytda markazga aylangan. Xadicha Sulaymonova Oliy sud raisi bo'lgan davrgacha hech qaysi bir davlatda Oliy sud raisi, aynan adolatni ta'minlashga ayol kishilar tayinlanmagan ekan. Bu borada ham Xadicha Sulaymonovaning bosib o'tgan yo'li, amalga oshirgan ishlari erkaklarniki bilan teng kelganligini ko'rishimiz mumkin. Xadicha Sulaymonova qisqa umr ko'radi. Bor-yo'g'i 52 yil yashaydi.

Xadicha Sulaymonova mamlakatimiz sud-huquq tizimi taraqqiyoti uchun o'zining munosib hissasini qo'shdi. Qisqagina umri davomida o'zidan juda katta ilmiy meros qoldirdi. Shu umri davomida asrlarga tatigulik ishlarni amalga oshirdi. Xadicha Sulaymonovaning bosib o'tgan yo'llari har qanday huquqshunos uchun ibrat, na'muna maktabi bo'ladi.

Xadicha Sulaymonova hayotdan ko'z yumganiga bir asrdan oshgan bo'lsa ham, u hamisha qalbizda mangu yashaydi.

Sevinch MUHAMMADIYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

O'ZBOSHIMCHALIK BILAN QURILGAN INSHOOTGA HAM MULK HUQUQI BERILADIMI?

“O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Qonunning 1-moddasida qonunning qo'llanish doirasi berilgan va bu eng muhim qism hisoblanadi chunki qonunning boshqa barcha moddalari shu 1-modda doirasida belgilanadi. Unda qonun quyidagi 8 ta holatgagina tadbiriq qilinishi belgilanmoqda. Ya'ni sizning qurgan bino inshootingiz shu 8 holatning biriga tushgan taqdirda siz qurgan inshootga mulk huquqi va egallangan yerga ijro huquqi e'tirof etiladi.

Unga ko'ra qonun:

1) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi) tomonidan 2018 yil 1 mayga qadar yakka tartibda uy-joy qurish orqali o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga; Kichik sharh bu yerda nafaqat o'zbekiston fuqarolariga balki, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ham o'zboshimchalik bilan qurilgan uylariga mulk huquqi egallangan yer uchastkalariga ijara huquqi berilishi belgilangan.

2) Fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident bo'lgan yuridik shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq ajratilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan yer uchastkasi maydonidan 2018 yil 1 mayga qadar ortiqcha egallagan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

3) O'zboshimchalik bilan qurilgan yakka tartibdagi uy-joylarga bo'lgan mulk huquqini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etilgan Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari (bundan buyon matnda Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari deb yuritiladi) tomonidan e'tirof etish mumkin deb topilganligi hollariga yoki uni e'tirof etish rad etilganligi yoxud arizalarning ko'rib chiqilishi birmartalik umumdavlat aktsiyasining muddati o'tganligi sababli yakuniga yetmaganligi hollariga; Kichik sharh: juda ham muhim bo'lgan qoida! Ko'pchilikka ma'lum Vazirlar Mahkamasining 461-sonli qarori bilan ko'pchilik mulk huquqini ola olmagan mazkur qonun bilan o'sha rad etilgan mulklarga ham yoki muddat tugab qolgan holatdagi mulklarga ham tadbiriq qilinishi belgilanmoqda.

4) 2021 yil 8 iyungacha qadar tuman (shahar) hokimining qaroriga ko'ra qonunchilik hujjatlariga muvofiq fuqarolarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga yoki rezident bo'lgan yuridik shaxslarga ajratilgan, tasdiqlash masalasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi yoki tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ko'rib chiqilmagan yer uchastkasiga (bundan shunday yer uchastkasida ikki yil ichida binolar va inshootlar qurilmagan yoki ularning qurilishi boshlanmagan yoxud yer uchastkasidan maqsadsiz foydalanilgan hollar mustasno);

5) Fuqarolarning bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylariga hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

6) 2020 yil 9 martga qadar kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik sub'ektlarining yashash uchun mo'ljallanmagan binolari va inshootlari yoki ularning qismlari joylashgan yer uchastkasiga;

7) Xususiy lashtirilgan binolar va inshootlar egallagan yer uchastkasiga;

8) Fuqarolarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning va rezident bo'lgan yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofik mulk (egallik qilish) huquqi e'tirof etilgan binolari va inshootlari egallagan yer uchastkasiga nisbatan huquqlarni e'tirof etish asoslari va tartibini belgilaydi.

Agar sizning o'zboshimchalik bilan qurilgan uchastkangiz shu 8 ta qoidaning bittasiga tushsa, siz qurgan inshootga mulk huquqi beriladi egallangan yer qonuniy rasmiylashtirib beriladi.

Nargiza SALIEVA,

Buxoro shaxar 1 son FXDY bo'limi 1 toifali inspektori

Prezidentning 23.07.2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Iqlim kengashini tashkil etish to'g'risida"gi 106-sonli Farmoni qabul qilindi.

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni samarali hal qilish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish mexanizm-larini takomillashtirish, shuningdek, O'zbekistonning Parij bitimi bo'yicha majburiyatlarini samarali bajarish uchun Prezident huzurida Iqlim kengashi tashkil etilmoqda.

PREZIDENT HUZURIDA IQLIM KENGASHI TASHKIL ETILADI

Iqlim kengashi majlislari bir yil davomida uch marta - yalpi majlislar (yilda bir marta) va oraliq majlislar (yilda ikki marta) shaklida o'tkaziladi.

Iqlim kengashining asosiy vazifalari:

* Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha Milliy strategiyani, shuningdek bu yo'nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish;

* iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish bo'yicha vazirlik va idoralarning ishini muvofiqlashtirish;

* BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi va Parij bitimidan kelib chiqadigan O'zbekiston majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish;

* iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishga, shu jumladan, "yashil" texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni o'z ichiga olgan loyihalarni resurslar bilan ta'minlash va moliyalashtirishga ko'maklashish.

Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

* Iqlim kengashi tarkibi;

* Iqlim kengashi to'g'risidagi nizom;

* iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo'yicha Milliy strategiyani, shuningdek, bu yo'nalishda yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi".

Ekologiya vazirligi huzuridagi davlat muassasasi shaklidagi Yashil transformatsiya va iqlim o'zgarishiga moslashish milliy markazi Iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy markaz deb qayta nomlandi. Iqlim markazi Iqlim kengashining ishchi organi, shuningdek, iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha muhim xalqaro va mintaqaviy rasmiy tadbirlarda O'zbekistonning ishtirokini muvofiqlashtirish va tayyorlash bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

Vazirlik va idoralarga (ro'yxat bo'yicha) ikki hafta muddatda mavjud shtat birliklari doirasida 2-3 ta shtat birligidan iborat ekologik diplomatiya bo'limlarini tashkil etish topshirildi.

Shu bilan birga, ilmiy va akademik salohiyatni oshirish, shuningdek, fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish uchun Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida (Green University) Iqlim ilmiy forumi (Iqlim rezidensiyasi) tashkil etilmoqda.

Shoxjahon MURODOV,

Buxoro shahar adliya bo'limi

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

SOLIQ MASLAHATCHILARI FAOLIYATI YO'LGA QO'YILADI

Mamlakatimizda soliqqa oid munosabatlarda islohotlar amalga oshirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 4 avgustdagi "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi 787-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan 2022 yil 5 noyabrdan boshlab soliq maslahatiga oid faoliyat yo'lga qo'yiladi.

Soliq maslahatiga oid faoliyat bu qanday faoliyat? Soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga doir faoliyati tushuniladi. Soliq maslahatchilari tashkiloti Soliq maslahatchilari palatasi tomonidan berilgan malaka sertifikatini asosida faoliyat olib boruvchi soliq maslahatchilarining yig'indisidan tashkil topadi.

Qonun bilan soliq maslahatchilari soliq maslahatlari bo'yicha bir nechta xizmatlarni amalga oshirish belgilandi.

Jumladan, 2022 yil 5 noyabrdan boshlab, soliq maslahatchilariga mijozga quyidagi xizmatlarni ko'rsatishi belgilab berildi:

- soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash, soliq hisobotini tayyorlash va taqdim etish masalalari bo'yicha maslahat berish;

- soliq hisobotini tayyorlashni va ularni shaxsiy kabinet orqali taqdim etish;

- ortiqcha undirilgan yoki ortiqcha to'langan soliqlar hisobidan soliq qarzini qaytarish va to'lash,



soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish uchun soliq organlariga taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlarni qonunchilikda belgilangan hollarda tayyorlash;

- soliq hisobini yuritish, mijozga soliq imtiyozlarini qo'llashga doir tavsiyalar taqdim etish;

- sudlarda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda soliqqa oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy, fuqarolik, jinoyat ishlarini hamda ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda vakillik qilish;

- mijoz tomonidan o'z soliq majburiyatlari muayyan davr uchun, shu jumladan, ixtiyoriy ravishda tugatilayotganda to'g'ri bajarilishini tekshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi.

Soliq maslahati xizmati qanday tartibda amalga oshiriladi? Soliq maslahatchilari tashkiloti mijoz bilan uning yashash joyidan va joylashgan yeridan qat'i nazar, soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Soliq maslahatiga doir shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni ko'rsatgan soliq maslahatchisi xizmat ko'rsatish yakuni bo'yicha o'z xulosasi orqali mijozga o'z fikrini bayon etadi.

Kimlar soliq maslahatchisi bo'la oladi?

- oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs;

- soliq maslahatchilari palatasi tomonidan belgilangan tartibda soliq maslahatchilarini tayyorlash bo'yicha kursni o'tagan shaxs;

- kamida besh yil ish stajiga, shu jumladan, iqtisodiy yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yil ish stajiga ega bo'lgan shaxs.

Dilshod SAIDOV,

Buxoro shahar adliya bo'limi

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsul'ti



DO'STLAR DIYDORI

*Do'st-do'stga shunday ko'zguki,
undan tiniqrog'i yo'q.
Avhadiddin ANVARIY*

*Bugun qadrdon ijodkor do'stlarim,
ustozlarim xonadonimiz mehmoni
bo'lishdi.*

*Salqin, yoqimli tabiat qo'ynida ijodiy
davra qurib, dildan gurunglashdik...*

*Do'stlar diydoriga nima yetsin azizlar.
"Do'st bilan bod uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham",
deya O'zbekiston Qahramoni, Xalq
shoiri, ustozimiz Erkin Vohidov juda
keltirib yozganlar.*

*O'lguncha tugamas dunyo ishlari,
Ko'plarning boshida tashvishlar qori.
Dunyoda baridan aziz va shirin,
Bu - do'stlar diydori, do'stlar diydori.*

*O'tib ketar, ortga qaytmaydi bugun,
Yechilmaydi qattiq bog'langan tugun.
Eng go'zal, halovat ko'ngillar uchun:
Bu do'stlar diydori, do'stlar diydori.*

*Qalbimizda mudom uyg'otar hayrat,
Yozda ham erimas, tog'barning qori.
Qadriga yetaylik, eng yaxshi ne'mat,
Bu - do'stlar diydori, do'stlar diydori.*

*Suvdek oqib o'tar odamning umri,
Hayotimiz ko'rki, dillar bahori.
Mehrlil bo'lmoqlik naqadar yaxshi,
Naqadar yaxshidir do'stlar diydori!*

*Azizlar, ayamang, shirin so'zingiz,
Yaqinlarga ayting, mehr-izhori.
O'ksigan dillarga eng yaxshi dori,
Bu - do'stlar diydori, do'stlar diydori.*



*Ne'matjon DO'SMATOV - 1966 yil Namangan viloyati, Pop tumanida
tavallud topgan. She'rlari tuman, viloyat, respublika matbuoti hamda
Turkiya, Hindiston, Kenya, Bangladesh davlatlari gazeta-jurnallarida
chop etilgan. Oozog'iston Respublikasi "Dunyo talantlari" xalqaro
uyushmasi "Mohir qalamkash" medali hamda Xalqaro Amir Temur
Jamoat Fondi esdalik nishoni sohibi.*

O'zLIDEP partiyasi faol a'zosi.

"Ezgulik bog'i", "Adolat tantanasi" she'riy kitobi muallifi.



SINOV

*Hech bir yigit kishining,
Chala qolmasin ishi.
Hech bir yigit boshiga,
Tushmasin qarz tashvishi.*

*Yiqilgan chog'larida,
Qochsa do'st-birodari.
Odamiylik qadriga,
Alishsa yoqut-zarni.*

*Beayb Parvardigor,
Ojiz inson bolasi.
Hech kimsaning boshiga,
Tushmasin qarz balosi.*

*Ishi yurishmay qolsa,
Suyasin og'a-inin.
Har bir inson boshida,
Bor yaxshi-yomon kuni.*

*Ishonmang, bandasiga,
Qadringizni bilmaydi.
Do'st bo'ling, Alloh bilan,
Mudom sizni qo'llaydi.*



EZGULIK GULLATAR INSONNI

*Qusur ko'rgan emas,
Qusur yopgan bo'li!
Darvesh Jalol*

*Tuzatgil o'zingni xatolaringni,
Birovning aybini izlama aslo.
Yomonsan, olgaysan jazolaringni,
Rahmdil bandasin qo'llaydi Xudo.*

*Birovga choh qazma, tushasan o'zing,
Uzatgil hamisha yiqilganga qo'l.
Ikki dunyoda ham yorug'dir yuzing,
Ko'rsatsang, yo'lsizga topib to'g'ri yo'l.*

*Hasad qilma, faqat havasda yasha,
Yovuzlik yeb ado qiladi jonni.
Yomon illatlaring hammasin tashla,
Ezgulik gullatar har bir insonni.*

YAXSHILIK QILISHDAN TO'XTAMANG

*Savoblar olasiz yo'l oching,
Ezgulik, duoga qo'l oching,
Quyoshdek beminnat nur soching,
Yaxshilik qilishdan to'xtamang!*

*Hech kimsaga qazimangiz choh,
Yovuz bo'lmang, qilmangiz gunoh,
Sizni o'zi qo'llaydi Alloh,
Yaxshilik qilishdan to'xtamang!*

*G'am chekmang, ko'p kam-u ko'stlarga,
Tirgak bo'ling, mudom do'stlarga,
Ma'sum qalblar, qora ko'zlarga,
Yaxshilik qilishdan to'xtamang!*

*Razil bo'lmang, adolat qiling,
Imkon bo'lsa, saxovat qiling,
Haq yo'lida raqobat qiling,
Yaxshilik qilishdan to'xtamang!*

*Sizni hamma yaxshi desinlar,
Insonlarning naqshi desinlar,
Haqqingizga duo qilsinlar,
Yaxshilik qilishdan to'xtamang!*

*Banda rizqi Alloh qo'lida,
Omad kimning o'ng-u so'lida,
Chin ko'ngildan Alloh yo'lida —
Yaxshilik qilishdan to'xtamang!*



FAVQULODDA VAZIYATLARDAGI GIDROTEXNIKA INSHOOTLARIDAGI ZARARNI QANDAY QOPLAYDILAR?

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (865-son)ning 27-moddasiga muvofiq ishlab chiqilgan 30.08.2023 yildagi "Gidrotexnik inshootlar xavfsizligi to'g'risida"gi huquqiy hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

* gidrotexnik inshootlardan foydalanishda avariya vaziyati yuzaga kelishi natijasida fuqarolarning sog'lig'iga va (yoki) mol-mulkiga, shuningdek atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun foydalanuvchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sug'urtalash tartibi;

* gidrotexnik inshootlardan foydalanishda favqulodda vaziyat natijasida aholining hayoti va sog'lig'iga hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zarar miqdorini hisoblash tartibi;

* fuqarolik javobgarligini sug'urtalash lozim bo'lgan gidrotexnik ob'yektlar ro'yxati.

Nizomga ko'ra, sug'urta shartnomasi gidrotexnik ob'yektlardan foydalanuvchi tashkilotning tashabbusi bilan sug'urtalovchi tomonidan belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi.

Hujjat quyidagilarni belgilaydi:

* sug'urta shartnomasini tuzish tartibi;

* sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi va boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlari;

* sug'urta tovonini to'lash tartibi.

Shuningdek, gidrotexnik inshootlardan foydalanishda avariya vaziyati yuzaga kelishi natijasida fuqarolarning sog'lig'iga va (yoki) mol-mulkiga, shuningdek atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplashning minimal miqdorlari keltirilgan. Zarar miqdorini baholash Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha hukumat komissiyasi yoki hududiy komissiyalar tomonidan aniqlanadi. Komissiya davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga avariya, halokatlar, tabiiy va boshqa ofatlar natijasida jabrlangan fuqarolarni, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda ishtirok etgan shaxslarni ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy himoya qilish, tibbiy reabilitatsiya qilish masalalari bo'yicha uslubiy va amaliy yordam ko'rsatishi kerak.

Lazizjon RASULOV,
Buxoro shahar Adliya bo'limi
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuristkonsulti

IJODIY TA'TILLAR BERISH TARTIBI QANDAY?

Mehnat Kodeksining 387-moddasiga asosan, mehnat faoliyatini yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga olib borayotgan shaxslarga asosiy ish joyida o'rtacha ish haqi va lavozimi saqlangan holda quyidagi muddatlarga ijodiy ta'tillar beriladi:



- falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasini olishga doir dissertatsiyani yakunlash uchun hamda darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar qo'lyozmalarining mualliflariga - uch oygacha;

- fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasini olishga doir doktorlik dissertatsiyani yakunlash uchun - olti oygacha.

Mualliflar jamoalari tomonidan darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarini yozish chog'ida mualliflar jamoasi a'zolaridan biriga mualliflar guruhining barcha a'zolari imzolagan yozma arizaga muvofiq ijodiy ta'til beriladi. Mualliflar ta'tilni o'zaro taqsimlashga ham haqli.

Ilmiy daraja olishga da'vogarlarga, shuningdek, darsliklarning yoki o'quv-uslubiy qo'llanmalarining mualliflariga navbatdagi yillik mehnat ta'tillari ular ijodiy ta'tillardan foydalanganligidan qat'i nazar beriladi.

Ijodiy ta'tillar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Suleyman BAXRIYEV,
Buxoro shahar adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti

QONUN USTUVORLIGI DEMOKRATIK JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARIDAN BIRIDIR

Qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik jamiyatni shakllantirishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, avvalo qonunlar fuqarolarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki bilan ishlab chiqiladi, ularning xohish va irodasini o'zida aks ettiradi. Ammo, ko'pgina qabul qilingan qonunlar real hayotga joriy qilinmasdan, qog'ozda qolib ketadi.



Sababi, birinchidan, qonunni qabul qilish davridagi jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uni amalga oshirish imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi. Ikkinchidan, qonunlarni yaratishdagi mahorat va salohiyatning (professionalizm) yetishmasligidir. Uchinchidan, fuqarolarning ham qonunlardan to'la foydalanishga salohiyati yetarli darajada bo'lmasligi. Ammo, nima bo'lganda ham qabul qilingan qonunlarga amal qilish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Chunki, u nafaqat, huquqlar tizimi bilan, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayoti bilan bog'liqdir. Ularni o'zida ifodalagan qonunlarning "ishonmasligi" yoki poymol qilinishi mavjud ekan, jamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Mamlakat va fuqarolar manfaatlarining uyg'un holatda amalga oshuvining asosiy mexanizmi qonunlar oldida oddiy fuqarodan tortib eng yuqori lavozimni egallab turgan amaldorlarga barobarligi, ularning qonunlarga so'zsiz itoat qilishi hisoblanadi. Bu tamoyilni shakllantirish O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda.

Qonun ustuvorligiga xilof ish qilish va unga mensimay qarash, mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning oyoqosti qilinishi, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalanish qonunlarni obro'sizlantiradi, davlat va jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetkazadi, xalqning noroziligiga, haqqoniy e'tirozlariga sabab bo'ladi. Ayniqsa, fuqarolarning davlat tuzilmalari bilan munosabatlari jarayonida qonunlarga rioya etilishi yoki rioya etilmasligi fuqaro - davlat munosabatlarining butun bir tizimdagi ijtimoiy adolat qoidalarining holatini belgilab beradi.

Shu o'rinda mahalliy hokimiyat vakillari to'g'risida alohida to'xtalib o'tish zarur deb o'ylaymiz. Zero, islohotlarni amalga oshirishda, joylarda adolat qoidalarini o'rnatishda ularning o'rni katta bo'lishi zarur. Buning o'rniga mahalliy hokimiyat vakillari, hatto hokimlar tomonidan inson huquqlarini buzish holatlari, afsuski, sodir etilmoqda.

Prezidentimiz ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida "Adolat - qonun ustuvorligida degan hayotiy tamoyilga qat'iy amal qilib yashash g'oyasi ham fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi", - deb ko'rsatgan edi. Lekin qonunlarga itoat qilishda, uning ijrosini ta'minlashga mas'ul bo'lgan kishilar har doim oddiy fuqarolarga "etalon" bo'lishlari lozim bo'ladi. Ular tomonidan qonunlarning buzilishiga qaratilgan har bir kichik xatti-harakatlar nafaqat umumiy taraqqiyotga, shuningdek, fuqarolarning hokimiyatga ishonchining barbod bo'lishiga olib keladi. Shu ma'noda ham qonun ustuvorligini ta'minlashda fuqaroga qaraganda uning ijrosi uchun mas'ul bo'lganlardan ko'proq yetakchilik qilishlari talab etiladi. Qonunlarning har qanday shaxs, guruh, siyosiy kuchlar yoki ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini real ta'minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin bo'ladi. Uning amal qilishi har ikkala hokimiyat va fuqaro manfaatlariga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, qonun ustuvorligi quyidagi uch holatda o'zining to'liq ifodasini topadi. Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar adolat prinsipiga, inson huquqi va manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jihatdan asoslangan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, barcha qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar talabi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan qat'iy bajarilishi shart. Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi shart.

Demak, demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir.

Namoz NURIDDINOV,
Buxoro shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuristkonsulti

YANGI KODEKSDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH BO'YICHA QULAY SHAROITLAR KO'ZDA TUTILDI

Kodeksga ko'ra, yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar va ular bilan bevosita bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy printsiplari etib quyidagilar belgilandi:

- * mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;
- * mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;
- * mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;
- * mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;
- * xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmaslik.

Jumladan, mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg'ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi.

M. MIRMULLOYEV,
Kogon shahar adliya bo'limi

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti

OYLIK, PENSIYA, NAFAQALAR OSHIRILADI



"Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni (108-son, 12.08.2024 yil) qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, 2024 yil 1 sentyabrdan pensiyalar va nafaqalar miqdori 15 foizga oshiriladi.

Bunda:

- * pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – oyiga 428 000 so'm;
- * yoshga doir eng kam pensiya miqdori – oyiga 834 000 so'm;
- * nogironlik pensiyalarining eng kam miqdori – oyiga 920 000 so'm etib belgilandi.

Shuningdek, 2024 yil 1 oktyabrdan:

* byudjet tashkilotlarida ishlovchi tibbiyot xodimlari, shuningdek, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va tashkilotlari, "Muruvvat" internat uylari, bolalar va mehribonlik uylari, bolalar sanatoriyalarida ishlovchi pedagog xodimlarning ish haqi miqdori – 15 foizga oshiriladi;

* byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori – 10 foizga oshiriladi;

- * mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori – oyiga 1 155 000 so'm;
- * bazaviy hisoblash miqdori – 375 000 so'm etib belgilandi.

Zuxro ERKINOVA,
Jondor tuman FHDY bo'limi 1-toifali inspektori

* Mehnat huquqlari

NOGIRONLAR UCHUN ISH SOATLARI

* Qonunchilikka ko'ra, I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi lozim.

* Shuningdek, ular uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi, lekin 6 kunlik ish haftasida — 6 soatdan, 5 kunlik ish haftasida — 7 soatu 30 daqiqadan ortib ketmasligi kerak.

Vazira SEVAROVA,
Jondor tuman FXDY bo'limi inspektori

MEROS ISHI OCHILDI

Buxoro viloyati, Jondor tumani, Qaroli MFY, Qaroli qishlog'ida yashab, 2009 yil 9 iyulda vafot etgan Qosimov Botirning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Jondor tumanidagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

* * *

Buxoro viloyati, Buxoro shahar, SH. Nurxon ko'chasi, 11-uyda yashab, 2020 yil 24 avgustda vafot etgan Xolova Nazira Abdullaevnaning mulkiga meros ishi ochilganligi munosabati bilan uning merosxo'rlaridan meros guvohnomasini rasmiylashtirish uchun bir oy muddat ichida Buxoro shahridagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusga murojaat qilishlari so'raladi.

OYLIK ISH HAQIDAN SHANBALIKKA, HASHARGA USHLAB QOLISH MAJBURIYMI?

Agar xodim rozilik bermasa, hasharga ish haqidan ushlab qolinishi g'ayriqonuniy! Hasharga ish haqidan ushlab qolinishi mutlaqo' ixtiyoriy, majburiy emas!

Rozilik ham aynan yozma ravishda bo'lishi kerak! Ya'ni har bir xodimdan shaxsan yozma roziligi olinishi kerak! Tashkilotda ming xodim bo'lsa, mingtasidan yozma ariza olinishi kerak! Shunchaki bittagina umumiy protokol bilan ish haqidan ushlab qolish ham g'ayriqonuniy!

O'z Res MK 269-moddasida umumiy qoidaga ko'ra, xodimning yozma roziligi bilan, xodimning roziligi bo'lmagan taqdirda esa ushbu moddaning 2-qismiga muvofiq ish haqidan ushlab qolinishi mumkin.

MK 269-modda 2-qismida ish haqidan xodimning rozilgisiz ham ushlab qolinishi mumkin bo'lgan holatlar belgilangan, lekin ular orasida hashar, remont, obuna va hokazolar nazarda tutilmagan! Ya'ni xodimning yozma arizasi mavjud bo'lmasa, ish haqidan hech kim ushlab qola olmaydi.

Chunki MK 253-moddasiga ko'ra, xodimlarga ish haqi to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, 16 kundan ko'p bo'lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo'lingan holda (bo'nakda va qolgan qismi miqdorida) to'lanadi.

Ya'ni ish haqining tushishi xodimning arizasiga umuman bog'liq emas. Xodimga har yarim oyda kamida bir marta ish haqi to'lanishi shart. Aks holda, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 49-moddasiga ko'ra, mansabdor shaxsga mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Dilshod OGANIYOZOV,
Buxoro shahar Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
Bosh yuristkonsulti

TUNDA BALAND OVOZDA TELEVIZOR KO'RISH JARIMA SOLISHGA SABAB BO'LADI

Tungi vaqtda (soat 23.00 dan 06.00 gacha) fuqarolarning osoyishtaligi va normal dam olishini buzish, ya'ni baland ovoz bilan qo'shiq aytish, musiqa chalish, tovush signallari berish, xonadonlarda, turar joylarning yo'laklari va eshiklarida, ko'chalarda ovozi baland qilib qo'yilgan televizorlar, radiopriyomniklar, magnitofonlar va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalardan foydalanish, turar joy binolarida va ulardan tashqarida juda zarur bo'lmagani holda shovqin chiqaruvchi ishlar qilish, quyidagi miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi:

- * fuqarolarga BHMning uchdan bir qismi;
- * mansabdor shaxslarga BHMning uchdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha.

Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Yulduz ATAeva,
Jondor tuman adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi

KASABA UYUSHMALARINING 120 YILLIK YUBILEYI NISHONLANADI

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashida apparat xodimlari, tarmoq kasaba uyushmalari viloyat kengashlari, birlashgan qo'mitalar va Buxoro shahar kengashlari raislari ishtirokida tizimda murojaatlar bilan ishlash tartibi to'g'risida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining mehnat inspeksiyasi rahbari, Federatsiya raisi o'rinbosari Q.Qirg'izaliev, mehnat huquq inspektorlari J.Kadirov, N.Asadovalar va Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi o'rinbosari SH.Javlonov ishtirok etdi.

Mazkur yig'ilishda asosiy masaladan tashqari, Federatsiya raisi o'rinbosari Q.Qirg'izaliev tomonidan O'zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yillik yubileyini nishonlash borasidagi tadbirlar bo'yicha topshiriq va ko'rsatmalar berilib, O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 33 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish borasida kasaba uyushmalarining faol ishtiroki, mamlakatimizda keyingi 7 yilda olib borilgan islohotlarning mohiyati, "Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" degan bosh g'oya asosidagi tadbirlar to'g'risida axborot berildi.

Abera IMOMOVA,
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Buxoro viloyati Kengashi madaniy-ma'rifiy va sport ishlari
bo'yicha mutaxassisi

QAYTIB KELSANG....

Chaman bog'lar aro izlaganim sen,
Izlayman, qay yonda ising taralsa.
Na kunlarda orom bor, qallda harorat,
Qani endi qaytsa o'shal onlarim.

Ko'zlaringning rangin bilardim, qo'ng'ir,
Lek hozir sezdim, yashil ekan rang.
Rasmingga termulib o'tmoqda umrim,
Anglangan qoshing ekan kamondek.

Qalbmning makoni sening yuraging,
Qaytib kelsang, ko'zlaringga to'yib boqardim.
Ko'zdan chiqqan har yosh senga eltuvchi,
Kelsa edi o'sha orzu shirin payt.

Sevgimiz tarixda qoldimi yoki?
Azobli o'tmishni eslatar yodgor.
Bo'ynimda zanjir sening yodingdir
Unda yozilgandir ismingning boshi.

Bu zanjir sirtmoqmas, u sendan e'zoz,
Sevganing eslatar faqat shu timsol.
U sendan xotira, shirin beg'ubor,
Qani endi qaytsa uni taqqan payt.

Xotiralar ezar ba'zan qalbmni,
Tomdan o'tgan tomchida sening shiviring.
Har yomg'ir yoqqanda eslayman yoding,
Qaytib kelsang, orzu to'yib quchmoqdir.

Ketding, uzoqlarga qo'lim yetmaydi,
Mayli, baxtli bo'lsang yetar menga ham.
Faqatgina tilagim senga yagona:
Ketmoqning qaytishi yo'qdir, unutma.

BAXTNING MANZILI

Qo'llarim osmonga cho'zaman shodon,
Quyosh nurlaridan sirqirar tanam.
Har tongning bargdagi shudringlaridan,
Faqatgina so'rayman birgina savol:
Baxt o'zi ne erur, manzili qayon?

Onam yopgan nonning mayin ifori,
Ajib tabassumi baxt deyilarmi?
Har kunning sabog'-u hikmatlarimi
Umr bitigi-yu, qiyinchilikmi yo.
Ko'ngrimda bor erur faqat bir mujda
Baxt o'zi nimada, manzili qayda?

Har oqshom ko'zimni tark etar uyqu,
Halovat neligin bilmay zadaman.
Qay yonga bormayin o'ylayman har on
O'zimga beraman faqat bir savol:
Baxt o'zi nimada, manzili qayda?

Do'stim, adashasan baxt bu ovqatmas,
Tanadagi zar libos emas nishona.
Baxt - bu oltin tojning boshda qo'nishi,
O'zingdan o'zgaga ko'rinmas yog'du.
Baxt bu ezgu niyat, xayrli amal,
Unga teng kelolmas hech bir kumush-zar.

IZLAYMAN

Ko'kning peshtoqida kezgan oy misol,
Ishqning ko'chasida devonaholman.
Har uchragan nokas, razildan bezor,
Sen uchun yaralgan umri iqbolman.

Izlayman so'zimning nurli peshtoqin,
Nafasing tafti-la oshiq hijronman.
Sen olam jahoni, yurak sultoni,
Men esa devona, g'arib oshiqman.

Ko'rinur tongdagi saboda jisming,
Eshtilur nurafshon har yonda noming.
Suvrating, siyrating, jisming, xayoling,
Men uchun atalgan go'zal bu yoding.

Qo'lim yetmas osmonning cho'qqisida sen,
Ovoz bermas tog'larda baland nishonsen.
Har so'zing, ash'oring, nozik iforing,
Men uchun atalgan masrurdir noming.

YOSHLIGIM

Chaqnaydi kuzlarda yoshlari gulgun,
Abadiy azoblar qiynaydi bag'rin.
Olisdagi baxtin topib yetolmay,
Essiz azoblarda o'tgan yoshligim.

Ko'zlarim hayrondir yo'llar anglamay,
Yuragim hayratda kunlar sanolmay.
Har yerdan baxtini izlab topolmay
Essiz, azoblarda o'tgan yoshligim.

Qo'msardim mehrni, oq bulutlarni,
Izlardim, pinhona baxt ko'chalarni.
Afsuski, armonda qoldi orzular,
Essiz, azoblarni totgan yoshligim.

Orzularim osmon, xayolim sarak
Bilardim ranglarni kamalak misol.
Va lek qora zulmat ko'rdim men alhol,
Essiz, ne azoblar ko'rgan yoshligim.

Kelar, deb kutaman ezgu damlarni,
Talpinib tinmayman ko'kka beayov.
Bilaman, qachondir keladi... mudom,
Baxtli hayot sirin anglarman qachon.

Bir o'lkada quvnaydi yoshlik bemalol,
U yerlarda mehrdan sarmastdir inson.
Boraman qachondir shu yerlarga men,
Orzularim osmon, ruhim bir jahon.

Nozanin ABDUSAMATOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Urgut filiali Pedagogika va tillarni
o'qitish fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi





YURAK VA QON TOMIR KASALLIKLARI XAVFI SKRINING TEKSHIRUVLARIDA ANIQLANADI

Aholiga ko'rsatilayotgan kardiologik va kardiojarrohlik xizmatlari sifatini yaxshilash, hududlarda yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish, barvaqt aniqlash va samarali davolash ishlarini kengaytirish, bemorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni zarur dori vositalari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida yo'nalishlar belgilangan.

Xususan, Prezidentimizning "Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 103-son qarorida quyidagilar yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishda asosiy yo'nalishlar etib belgilandi:

- birlamchi tibbiyot muassasalari tomonidan davriy tibbiy ko'rikni yo'lga qo'yish hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish;

- ehtiyojmand aholi qatlamlarini zarur dori vositalari bilan bepul ta'minlash;

- hududlarda ko'rsatilayotgan yuqori texnologik, kaminvaziv kardiologik hamda kardiojarrohlik tibbiy xizmatlar ko'lamini oshirish;

- birlamchi bo'g'indagi mutaxassislarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va salohiyatini oshirish, sohada ilm-fanni rivojlantirish;

- yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini raqamlashtirish.

Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida aholi bilan bevosita mahallada ishlaydigan «tibbiyot brigadalari» va oilaviy poliklinikalar rolini tubdan oshirish hamda yurak-qon tomir kasalliklarini erta aniqlash va ularning oldini olish maqsadida 2022 yildan boshlab:

- yiliga bir marta 18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan aholining salomatlik profilini (ovqatlanish xarakteri, tamakiga qaramlik, tana vazni indeksi, arterial bosim, qondagi qand va xolesterin darajasi

va boshqalar) baholash;

- 40 yoshdan oshgan aholini oilaviy poliklinika va tibbiyot brigadalari orqali yiliga kamida bir marta manzilli skrining tekshiruvlaridan o'tkazish;

- yurak-qon tomir kasalliklari aniqlangan bemorlarning yagona elektron reestrini yuritish hamda ushbu turdagi kasalliklari mavjud aholiga enalapril (Enalapril) dori vositasini bepul tarqatish;

- ehtiyojga ko'ra tuman (shahar) shifoxonalari laboratoriyalarini koagulometr uskunasi hamda zarur reaktivlar bilan to'liq ta'minlash yo'lga qo'yildi.

40 yoshdan oshgan aholini skrining tekshiruvlari natijasida aholining yurak-qon tomir kasalliklari erta aniqlanadi. Ushbu kasalliklarga arterial gipertoniya va yurak ishemik kasalligini misol qilib keltirish mumkin.

Gipertoniya — qon tomirlarining nerv-funksional faoliyati buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik bo'lib, asosan 40 yoshdan kattalarda uchraydi. Gipertoniyaning asosiyalohati miya tomirlarining spazmi va torayishi tufayli bosh og'rig'idir. Shuningdek, ko'pincha quloqlarda shovqin, ko'rish holati susayishi, holsizlik, uyqu buzilishi, bosh aylanishi, boshda og'irlik hissi, yurak urishi tezlashishi namoyon bo'ladi.

Yurakning ishemik kasalligi bir qancha yurak xastaliklari (xususan, stenokardiya va miokard infarkti)ni o'z ichiga olgan jiddiy dard hisoblanadi. Ctresslar, qattiq asabiylashish holatlari, qonda xolesterin miqdorining ko'payishi, spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilish, chekishga ruju qo'yish, semizlik va boshqa zararli omillar Yurakning ishemik kasalligi rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Laylo SAIDOVA,

Buxoro shahar 3-son oilaviy poliklinika bo'lim boshlig'i

VATAN ISHQI

Orzular tomonga yurib ohista,
Bir-bir kezayapman yurt kochalarin.
Qo'limga tutib men qalamim asta,
Yozurman vatanning tinch kechalarin.
Mustaqillik nomli ulug' bir ne'mat,
Tuhfa etar bizga yorqin kelajak.
Har tong uyg'onarman yangi umid-la,
Istiqlol bizlarni baxtga eltajak.
Qarshimda hayotning nurli yo'llari,
Odimlab borarman maqsadlar tomon.
Ezgulik, yaxshilik hamroh bu yo'lda -
Yuksak marralarga beradi imkon.
Yangi hayot uchun, yangi tong uchun,
Baralla jaranglar umid bonglari.
Yangi O'zbekiston ravnaqi uchun,
Birlashib, o'zbekning qiz-o'g'lonlari.
Shukronalik hissini joylang dillarga,
Yurtboshim ishonchin oqlamoqlik shart.
Ulkan yutuqlar-u marralar tomon,
Shaxdam qadamlarni bosamiz albat.

Maftuna MAHKAMOVA,

**Andijon viloyati, Baliqchi tumani
1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi**

**BIZ BIR BO'LSAK –
YAGONA XALQMIZ,
BIRLASHSAK –
VATANMIZ!**

Biz, o'zbek xalqi, tarix davomida turli-tuman sinovlardan o'tdik. O'zbekistonning boy va rang-barang madaniyati, tarixi, tili va dini bizni birlashtiradi. Bizning birligimiz, hamjihatligimiz esa kelajagimizning garovidir.

"Bir bo'lsak yagona xalqmiz" degan shior shunchaki so'z emas, balki bizning milliy ongimizning, birlashishga bo'lgan intilishimizning ifodasi hamdir. Birlik va hamjihatlik taraqqiyotimizni mustahkam qiladi, bizni o'zaro hurmat va mehr-muhabbat bilan birlashtiradi. Birlikning ahamiyati nafaqat ijtimoiy hayotda, balki iqtisodiy va siyosiy sohalarda ham katta. Birlashgan xalq o'zining maqsadlariga erishishda muvaffaqiyatli bo'ladi. Bizning birligimiz, hamjihatligimiz bizni dunyo xalqlari orasida o'z o'rnini topishga, o'zining ovozi ko'rsatishga yordam beradi.

Yurtimiz fuqarolarida birlik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun biz quyidagilarni amalga oshirishimiz kerak:

- o'zaro hurmat va mehr-muhabbatni rivojlantirish. Bunga ko'ra har bir insonning shaxsiyatiga hurmat bilan qarashimiz, millati, dini, tilidan qat'i nazar, bir-birimizga yordam berishga tayyor bo'lishimiz;

- milliy qadriyatlarimizni asrash, ya'ni o'zbek xalqining boy madaniyati, tarixi va tili bizning milliy g'ururimizdir. Bu qadriyatlarni asrash, ularni kelajak avlodlarga bekam-u ko'st yetkazish bizning burchimizdir.

- birlashtiruvchi omillarni kuchaytirish, ya'ni sport, san'at, madaniyat kabi sohalarni rivojlantirish, ularni birlashtiruvchi omil sifatida ishlatishimiz;

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarning o'z vataniga bo'lgan muhabbatini, milliy ongini shakllantirish.

"Bir bo'lsak yagona xalqmiz" degan shior bizning milliy g'ururimizni, birlashishga bo'lgan intilishimizni ifodalaydi. Bizning birligimiz, hamjihatligimiz esa bizni kelajagimizni ham mustahkam va farovon qiladi.

Milliy g'ururimizni asrash - bu har bir o'zbekman, degan dindoshimizning burchidir. Bu, o'z tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz va an'analarimizga hurmat bilan qarashni anglatadi. Milliy g'urur bizni birlashtiradi, o'zligimizni anglashga yordam beradi va kelajak avlodlarga o'z tariximizni va madaniyatimizni o'rgatishga imkon beradi.

Milliy g'ururimizni asrash uchun o'zbek xalqining boy tarixini o'rganish, tarixiy yodgorliklarni ziyorat qilish, tarixiy shaxslar haqida ma'lumot olish, madaniyatimizni targ'ib qilish, o'zbek xalqining milliy san'ati, musiqasi, adabiyoti, hunarmandchiligini o'rganish, ularni targ'ib qilish, o'zbek milliy kiyimlarini kiyishdan uyalmaslik va uni Evropaga borsa ham bemalol kiyib yura oladigan milliy ongga egalik qilish. Tilimizni saqlash, o'zbek tilida gapirish, yozish, o'qish, o'zbek tilida o'z fikrlarini mukammal ifoda etishga harakat qilish. An'analarimizni hurmat qilish, o'zbek xalqining milliy bayramlarini nishonlash, milliy urf-odatlariga rioya qilish. Vatanimizni chin yurakdan sevish, O'zbekistonning go'zal tabiatini, boy madaniyatini, mehribon xalqini sevish, Vatanimizning taraqqiyoti uchun qo'lidan kelgan barcha imkonini ishga solib, harakat qilish.

"Bir bolsak yagona xalqmiz" degan shior shunchaki so'z emas, balki bizning milliy birligimizni, o'zaro hurmat va hamjihatligimizni ifodalaydi. Bizning tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz va an'analarimiz bizni birlashtiradi. Birlik va hamjihatlik bizni mustahkam qiladi, o'zaro hurmat va mehr-muhabbat bilan birlashtiradi. Milliy g'ururimizni asrab, tariximizni o'rganib, madaniyatimizni targ'ib qilib, bir-birimizga yordam berib, kelajak avlodlarga o'z tariximizni va madaniyatimizni o'rgatish orqali biz "Bir bo'lsak yagona xalqmiz" shiorini haqiqatga aylantirishimiz mumkin.

**Umriniso TO'RAYEVA,
BuxDU o'qituvchisi**





Mamlakatimizda yosh avlodga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Binobarin, bugun unib o'sib kelayotgan avlod kelajakda yetuk shaxs sifatida millat yukiga yelka tutishga qodir bilimli, kasb-hunarli bo'lishi davr talabidir.

Mazkur yo'nalishda Buxoro viloyat prokuraturasi organlari tomonidan qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli va samarali ishlar olib borilmoqda.

2024 yil 1-yarmida o'tkazilgan nazorat tadbirlarida 172 ta huquqiy hujjatlarga protest keltirilib, 324 nafar shaxslar qonun buzilishiga yo'l qo'ymaslik xususida rasman ogohlantirildi. Aniqlangan qonun buzilishi holatlari bo'yicha 109 ta taqdimnomalar kiritilib, prokuror qarorlari va taqdimnomalariga asosan 148 nafar shaxs intizomiy, 217 nafar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortildi. Xususan, voyaga yetmaganlarning manfaatini ko'zlab sudlarga 15 ta da'vo arizalari kiritildi.

Xalq ta'limi davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta'limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollari aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi bejizga ta'kidlangan emas.

Qo'pol qonun buzilishi holatlari yuzasidan 10 ta jinoyat ishlari qo'zg'atildi, yetkazilgan 50 mln. 206 ming so'mlik zararlar ixtiyoriy ravishda undirilib, 1479 nafar nafar shaxslarning buzilgan huquqlari tiklandi.

Tahlillarga ko'ra, viloyatdagi 548 ta davlat umumta'lim maktablarida 326 112 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya olishmoqda. 2 118 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning 131 620 nafari yoki 84,0 foizi qamrab olingan.

Xususan, 488 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 81 404 nafar, davlat-xususiy shirklik asosidagi 108 ta muassasalarda 9 424 nafar, 21 ta xususiy muassasalarga 650 nafar hamda 1 501 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 40 142 nafar bolalar jalb qilingan.

Sohaga oid raqamlar, faktlar ortida inson taqdiri, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mujassam. Viloyatda 3-7 yoshli 156 695 nafar bolalarning 25 503 nafari maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrab olinmagan.

Buning tub sabablari o'rganilganda, viloyatdagi 10 ta mahalla fuqarolar yig'inida davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud emas. Yoki, 3-7 yoshli bolalar qamrovi mahallalarning 53 tasida 30 foizdan kam, 116 tasida 50 foizdan kam, 258 tasida 80 foizdan kam qismini tashkil etdi. Qamrovni oshirish uchun yangi ta'lim muas-

sasi qurishga loyiha smeta hujjatlariga ko'ra, 120 o'rinli muassasa uchun 5.5 mlrd. so'm, 90 o'rinli uchun 4.1 mlrd. so'm mablag' talab etilgan. Shunga ko'ra, prokuratura organlari tomonidan mavjud imkoniyatlar tahlil qilindi.

Aniqlanishicha, byudjet mablag'larini tahlil asosida yo'naltirilmaganligi oqibatida ayrim ijtimoiy soha ob'ektlarni zaruratsiz (ehtiyodan ortiq) bunyod etilgan. Masalan, Buxoro tumani, "Rabotiqalmoq" MFY, "Bunyodkor" qishlog'ida 2022 yilda 15 mlrd. so'm investitsiya mablag'lari evaziga qurilgan 528 o'rinli 46-umumta'lim maktabida atigi 133 nafar (umumiy qamrovning 25 foiz) o'quvchilar tahsil olmoqda.

Vaholanki, ushbu qishloqdagi 69 nafar 3-7 yoshli bolalarning 54 nafari maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrab olinmagan, ularning 15 nafari esa uzoq masofadagi maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormoqda.

Viloyat prokuraturasi tashabbusi bilan 46-maktab binosi birinchi qavatining foydalanilmayotgan qismida mahalliy byudjetdan ajratilgan 400 mln. so'm evaziga 60 o'rinli 43-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti filiali tashkil etildi.

Shu kabi, Vobkent tumani, "Shirin" MFY hududidagi 14-maktab birinchi qavatining foydalanilmayotgan qismida 185 mln. so'm byudjet mablag'lari hamda 274 mln. so'm homiylik mablag'lari hisobidan jami 459 mln. so'm mablag' evaziga 90 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, yana 6 ta (Buxoro va Olot tumanlarida 2 tadan, Kogon shahri va Jondor tumanida 1 tadan) hududdagi maktablarning bo'sh xonalarida 655 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilmoqda.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar natijasida, o'tgan 2023 yilda viloyatda qamrov darajasi 83,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda 84,0 foizga yetkazildi. Bu boradagi nazorat tadbirlari Bosh prokuratura tomonidan ijobiy deb topildi. Bundan tashqari, prokuratura organlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarori ijrosi uyda ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun o'quv jarayonlari hamda yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazilishini tashkil etilishi ahvoliga alohida e'tibor qaratgan holda o'rganildi.

O'rganishlar davomida, uyda ta'lim olayotgan o'quvchilarning 10 nafari o'quv qurollari, 13 nafari yangi parta, 11 nafari yangi doska, 9 nafari nogironlik aravachasi, 1 nafari qo'ltiq-tayoq, 1 nafari hassa bilan ta'minlanib, 373 nafariga boshqa ko'rinishda (to'garakka jalb etish va boshqa) amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Prokuratura organlarining aralashuvi bilan tuman-shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan viloyatdagi umumta'lim maktablarida uyda yakka tartibda ta'lim ola-

yotgan o'quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqib, ularning 63 nafari yangi doska, parta va stol hamda o'quv qurollari (badiiy kitob) olib berilishi ta'minlandi. Yoki, joriy yilning 21-23 may kunlari tuman-shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan uyda ta'lim olayotgan 662 nafar o'quvchilar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 35 nafar bolalar viloyatdagi tibbiyot muassasalarida davolanishlari uchun imtiyozli yo'llanma ajratilishi hamda zarur bo'lgan dori-darmon vositalari ko'rsatmaga asosan ambulator sharoitda berilishi ta'minlandi.

Nazorat tadbirlarida 14 ta protest keltirildi, 18 nafar shaxslarga nisbatan intizomiy, 9 nafar shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlikka doir ishlar qo'zg'atilib, 14 ta taqdimnoma kiritildi, taqdimnoma muhokamasi bo'yicha 25 nafar shaxs intizomiy, 20 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilishi hamda 73 nafar shaxslarning huquqlari tiklanishi va 14116,7 ming so'mlik yetkazilgan zarar ixtiyoriy undirilishi ta'minlandi.

Viloyatda 2024 yil yoz mavsumi davomida 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 7200 nafar bolalar 10 ta stantsionar turdagi oromgohlarda dam oldirish va sog'lomlashtirish rejalashtirilgan. Viloyat prokuraturasi va boshqa mutasaddi idora xodimlaridan iborat ishchi guruhi tomonidan Buxoro shahridagi "Xumo", "Yosh aloqachi", Buxoro tumanidagi "Yosh paxtakor", Vobkent tumanidagi "Porlok kelajak", "Nurli manzil" ("Yosh irrigator"), "Quyosh nuri", G'ijduvon tumanidagi "Bolalar sayyorasi", Peshku tumanidagi "Peshku" hamda Romitan tumanidagi "Romitan" dam olish oromgohlari faoliyati o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rildi.

Viloyat bo'yicha faoliyat yuritayotgan 10 ta stantsionar oromgohlarda 5 mavsumda jami 6 307 nafar bolalarning mazmunli dam olishlari tashkil etildi.

Bulardan tashqari, joriy yilning 29 iyun kuni Buxoro tumanidagi "Yosh paxtakor" hamda Buxoro shahridagi "Neftchi" bolalar oromgohlarida "Yangi O'zbekistonning baxtiyor bolalari" shiori ostida tadbirlar o'tkazilib, bunda to'garak mashg'ulotlari, stol tennisi, shaxmat-shashka, "Kim epchil-kim chaqqon" musobaqalari, "Tabiatni asraylik" rasmlar tanlovi, "Ertak qahramonlari oromgohda", "Kitob - beminnat ustoz" davra suhbatlari o'tkazilib, tadbir yakunida "Shodon ko'ngillar" bayram dasturxonini yozildi.

Sohada qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta'minlash borasida faoliyat izchil davom ettiriladi. Zero, O'zbekiston yoshlarining kelajagiga mustahkam poydevor qonunlar asosida yaratiladi.

Dilshod ZARIPOV,
Buxoro viloyat prokurorining
katta yordamchisi

Mustaqim ROFIY

Nechun tirik chog'i eslanmas buyuk,
Uning yurak-bag'ri bo'lsa ham kuyuk.
O'lgach, hamma deydi "do'st edi suyuq,
Tirik buyuk barcha uchun og'ir yuk.

* * *

Hamisha qiyindir qilish ixtiro,
Har kimga ham nasib qilmas bu aslo.
Mushkul tan oldirmoq olimlar aro,
Bari ixtiromas, deb qilar da'vo.

* * *

Har narsaga me'yor o'rnatgan Xudo,
Bu me'yor abadiy, o'zgarmas aslo.
Nega shunday, hech kim bilmasdir, ammo,
Buni Parvardigor biladi tanho.

* * *

Fojea, deyilar gar o'lsa hayvon,
Oyoqqa turadi bor ahli jahon.
Ammo, otilla ham sanoksiz inson,
Har kim ham "qatli om" demas hech qachon.

* * *

Hamisha mavjuddir oq bilan qora,
Ular bir xil bo'lmas, bo'lma ovora.
O'zingni qilsang ham garchi ming pora,
Bu ish ilojsizdir, yo'q biror chora.

* * *

Oqni qora desak, so'ng qorani oq,
Natijada, hamma shaksiz der shundoq.
Bunday "tarbiya" ning zarari ko'proq,
Bu "falsafa" foyda bermasdir hech choq.

* * *

Bu dunyo hammani qilar imtixon,
Sinovdan o'tkazar boyu notavon.
Bu sinov oldida mulzam nuqtadon,
Pir der: "Bu dunyodir eng xavfli shayton".

* * *

Pulga sotilmagan, ayt, nima qoldi,
Erda sha'n, ayolda iffat yo'qoldi.
Mumkin emasni ham pul sotib oldi,
Shayton odamni o'z yo'lga soldi.

* * *

Aslo unutilmas birinchi qadam,
Shaksiz, unutilmas ilk muhabbat ham.
Bariga hayotning o'zidir hakam,
Qat'iyat zo'r, ishonch bo'lsin mustahkam.

* * *

Bir vaqtlar jahonga bosh edi dono,
Hech kim qilmas edi uni istisno.
Endi esa nodon shoh olam aro,
Nodonga mos so'zlar maddoh, ulamo.

* * *

Bir vaqtlar jahonga bosh edi dono,
Hech kim qilmas edi uni istisno.
Endi esa nodon shoh olam aro,
Nodonga mos so'zlar maddoh ulamo.

* * *

Hech qachon o'zimni demasman "dono",
Bunday fikr mendan yiroq mutlaqo.
"Telba", derlar bizni olamon aro,
Angladimki, xatto, bilganim xato.

* * *

Ish boshlashdan oldin qiynar ko'p savol,
Lek, ularga javob topmoqlik mahol.
Pir der: "Hech kim bilmas oldinda ne hol,
Buni bilar va hal qilar Haq hallol".

* * *

Koinotda yulduz, sayyora bisyor,
Sanog'iga yetib bo'lmasdir zinhor.
So'rashadi: "Yana qayda xayot bor?"
Buni bilar yolg'iz Haq Parvardigor.



Sabru toqat bo'lsa kimning yo'ldoshi, Egik bo'lmas uning bu aziz boshi

Har bitta odamning o'z niyati bor,
Lek, hech kim maqsadin qilmasdir oshkor.
Sir tutar, bo'lsa ham hattoki hamkor,
Ehtiyot bo'l, odam xavfli, eng makkor.

* * *

Bu dunyo sirlarin anglamoq dushvor,
Bunga aksar kishi bo'lmas sazovor.
Behaddir undagi mavhum sir-asror,
Donolar ham ular oldida nochor.

* * *

Tuzatilmas erur ba'zan bir xato,
Tuzatishga imkon bo'lmasdir aslo.
U sabab tug'ilar jiddiy muammo,
Uni hal qilishga vaqt yetmas, ammo...

* * *

Shatranj o'yiniga o'xshaydi hayot,
Unda ham kimdir "rux", kimdir esa "ot".
Oltmish to'rtta katak bo'lsa ham, hayhot,
Unda bo'lar janggi hayot-u mamot.

* * *

Imkon boy berilgach, benaf pushaymon,
U xech kimga foyda bermas xech kachon.
Zafar bu tangridan lutf u xam exson,
Uzi istaganga u berar imkon.

* * *

Odamning har nega yetmas bardoshi,
Har kimning bor erur ko'tarar toshi.
Sabru toqat bo'lsa kimning yo'ldoshi,
Egik bo'lmas uning bu aziz boshi.

* * *

Hozir paydo bo'lgan "teleshifokor",
Sizga tashxis qo'yar, tekshirmay zinhor.
Pir der: "Bu yo'l bilan tuzalmoq dushvor,
Shifo topolmagan birorta bemo".

* * *

Haq taqdir qilgan ish, albatta, bo'lgay,
Har kim yozug'ida borini ko'rgay.
Chin mo'min Allohga tavakkul qilgay,
Ne bo'lsa xohishi haq deya bilgay.

* * *

Kurashga chiqadi zo'rdan zo'r polvon,
Ularning har biri erur pahlavon.
Polvon yengilaman demas hech qachon,
Barini hal qilar kurash u yazdon.

Ko'ylagim bo'lsa ham oddiy, bo'z mato,
U shoh kiygan zarbof libosdan a'lo.
Yashar joyim kulba bo'lsa-da, hatto,
Bu "ko'shk" da yashayman shod,

xuddi podsho.

* * *

Avval qo'rqar edik deyishsa "rasvo",
Endi esa bunga qilmaymiz parvo.

Pir der: "Yo'q xislatni qilmang hech da'vo,
Borimiz shu, bundan ortiqmas aslo".

O'y-fikrimiz o'xshar xuddi sarobga,
Shuurimiz yetmas hisob-kitobga.
Siz, ishonmang mavhum, betayin xobga,
Birorta yolg'on tush chiqmas ro'yobga.

* * *

Hammani qiynaydi qanday kun ko'rish,
Barchaning boshida bordir bu sho'rish.
Qiyin bo'lsa hamki, bu bo'lmag'ur ish,
Kerakmas... "It yotish va mirza turish".

* * *

Oqil ishlashiga yo'l qo'ymas avom,
Hurmatlab, ko'rsatmas unga ehtirom.
E'tirof etmasdir va bermas salom,
Oqilni unutar avom batamom.

* * *

Oqilni tanisa qolmasdi avom,
Ustoz deb bilardi o'ziga mudom.
Bo'lmas edi ahli donishlar badnom,
Bo'lardi ravnaqi bashar bardavom.

* * *

Derlar: "Tasodifga to'ladir hayot",
Lek, hech ne sababsiz ro'y bermas, hayhot.
Toki mavjud ekan borliq, mavjudot,
Ro'y berar Haq ruxsat bergan hodisot.

* * *

Dedilar: "Borliqqa asos to'rt unsur",
Insonda o'zgardi, ammo, tafakkur.
Unsur kimlargadir bo'lmadi manzur,
Endi "asos" haqda yo'q hech tasavvur.

* * *

Urishib qolishdi xotin bilan er,
Er jazava qilib, xotiniga der:
"Men soddaga aniq tushuntirib ber,
Gar aldasang, nega seni bosmas ter?"

* * *

Agar tahlil qilsak, biz qilib diqqat,
Sabrdir Hak bergan beqiyos ne'mat.
Chunki, sabri borda bo'lgaydir toqat,
U Hakning amriga qilar itoat.

* * *

Hak har bir narsaga o'rnatgan me'yor,
Hayot xam odamga berilar bir bor.
Shu sabab o'tkazma uni sen bekor,
G'am yema, mehribon Haq Parvardigor.

* * *

Parvardigor bergan hammaga imkon,
O'zini qilishi uchun namoyon.
Nimaniki niyat qilarkan inson,
Umidvor bo'lmog'i lozim har qachon.

BOZORLARGA QO'YILADIGAN YONG'IN XAVFSIZLIGI TALABLARI

Yarmarkalar va bozorlarda yong'in sodir bo'lganda odamlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish, binolarni va hududni tark etish rejaları (sxemasi) hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning majburiyatlari ishlab chiqilishi lozim. Yong'in sodir bo'lganda fuqarolarga xabar berish va ularni evakuatsiya qilish bo'yicha tovushli xabar berish moslamalarini yoqish va ishlatish tartibi hamda xabar berish matni yarmarka va bozorlar rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi.

Yarmarka va bozorlar hududiga yong'in-qutqaruv avtomobillari kirib-chiqishi uchun kengligi 5 m dan kam bo'lmagan darvoza bo'lishi kerak. Agar ushbu obyektlar hududi bir gektardan oshiq bo'lsa, hudud relyefiga qarab bir nechta kirish joylari tashkil etilishi mumkin, lekin ularning soni kamida ikkita bo'lishi lozim. Yarmarka va bozorlarning ish vaqtida ularning hududlariga kirish darvozalari va ularga borish yo'llari doimo ochiq bo'lishi lozim. Yarmarka va bozorlarda savdo rastalari, binolar, inshootlar, omborlar, yong'inga qarshi suv manbalarining joylashuvi, ularga yong'in-qutqaruv avtomobillarini olib boruvchi yo'llar, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari o'rnatilgan joylar, shuningdek, xaridorlarning yurish va o'tish yo'laklari ko'rsatilgan sxemalar ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

X. DJO'RAYEV,

Buxoro shahar FVB inspektori, mayor

TURAR JOY QURILISHIDA SHAHARSOZLIK TALABLARI

Shahar, turar-joy hududiga yoki alohida turar-joy uyiga yer sathini tanlash o'ta ma'suliyatli ishdir, chunki bu yerda aholining yashashi uchun hamma shart-sharoitlar mavjud bo'lishi va kelgusi avlodlarning yashashlarini hisobga olish zarur. Shuning uchun, bir qator talablar bilan chegaralangan holda alohida turar uy joyini qurish uchun maydon tanlanadi. Ushbu tanlangan yer maydoni turar uy joy uchun yer sathi balandroq, ya'ni suv to'planmaydigan, ko'kalamzorlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan, undan tashqari, sanoat va ishlab chiqarish korxonalaridan sanitariya-gigienik jihatdan uzoqroq masofada bo'lishi kerak. Shuningdek, bino boshqa turar-joy va jamoat binolaridan uzoqroq masofada joylashishini, quyoshga nisbatan yaxshi orientatsiyada bo'lishi va tabiiy shamollatilishini ta'minlamoq lozim. Turar-joy uyi bundan tashqari ko'cha shovqinidan, transport harakatidan muhofazalangan bo'lishi kerak. Turar-joy binolarini shahar va qishloq hududlarida joylashtirishni shaharsozlik loyihasi bo'yicha ShNK 2.07.01ning talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ommaviy uy-joy qurilish uchun 4-qavatdan baland bo'lmagan; oqvalashtirilmagan (kanalizatsiyalashtirilmagan) shahar va qishloqlarda 1-2 qavatli binolar qo'llanilishi lozim. 9-12 qavatli binolar yirik shaharlarning markazida qurish uchun qo'llash mumkin; 16 qavatli binolar maxsus (alohida) asoslar bo'yicha va Davarxitektqurilishning ruxsati bo'yicha qo'llaniladi. Ommaviy uy-joy qurilish uchun 4-qavatdan baland bo'lmagan; kanalizatsiyalashtirilmagan shahar va qishloqlarda 1-2 qavatli binolar qo'llanilishi lozim.

Y. HAMROYEV,

Buxoro shahar FVB katta inspektori, kapitan

CHO'KAYOTGAN ODAMNI QUTQARISH

Bunday harakatlar ixtiyorsiz ravishda bo'ladi, shuning uchun siz bir necha oddiy qoidaga amal qilishingiz kerak:

- birinchidan, cho'kayotgan odamga yordam berish uchun uning orqa tomonidan suzib kelish kerak, ya'ni u qutqaruvchini ko'rmasligi lozim. Shundan so'ng cho'kayotganni suvdan chiqarishning turli yo'llarini qo'llash kerak:

Cho'kayotgan odamni orqaga qo'yib, uni qo'ltig'i yoki qulog'i yaqinida boshidan ushlab, oyoqlar bilan ishlab, uni o'z ortidan tortish. Bitta qo'lni cho'kuvchining qo'ltig'i ostidan o'tkazib, uni iyagidan ushlab, suv sathidan yuqorida fiksatsiya qilib, erkin qo'l va oyoqlarni harakatlantirib tortish. Cho'kuvchini chalgancha qilib, bitta qo'lni uning qo'ltig'i ostidan o'tkazib, uning ikkinchi qo'lidan ushlab, o'z ortidan tortish. Agar cho'kayotgan odam sizni tutishga harakat qilsa, nafasni ushlab, suv ostiga sho'ng'ish kerak. Cho'kuvchining tirmashib olganidan uning qo'llarini majburlab ochish orqali qutulishga urinmaslik kerak - vahima jabrlanuvchiga qo'shimcha kuch beradi, kurashish esa yana ko'proq vaqtni oladi.

Agar chukuvchi suv tubiga yetgan bo'lsa, oqimning kuchi va yo'nalishini hisobga olib, sho'ng'ish kerak. Sho'ng'igach, cho'kib ketgan odamni qattiq tutub, bitta harakat bilan suv sathiga chiqib olish uchun suv tubidan kuchli itarilish kerak.

A. SAFAROV,

Buxoro shahar FVB bo'linma boshlig'i, leytenant

ZILZILA, YER QIMIRLASHI

Zilzila, yer qimirlash - yer po'stida yoki mantiyaning yuqori qismida to'satdan siljish, sinish yoki o'pirilish ro'y berishi oqibatida vujudga keladigan va to'lqinsimon tebranishlar tarzida uzoqlarga tarqaladigan yer osti silkinishlari va tebranishlari. Sabablariga ko'ra, tektonik, vulqoniy va o'pirilish zilzilalariga bo'linadi. Yer po'stining har xil chuqurligida tabiiy kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan silkinishlar tektonik zilzilalar deyiladi. Ular yer qa'ridagi harakat va jarayonlarning mahsuli bo'lib, bu jarayonlarning kinetik quvvat tarzida birdan (1 min.da) sarflanishi oqibatidir. Vulqoniy va o'pirilish zilzilalari tabiatda juda kam sodir bo'ladi; ular kuchi jihatidan tektonik zilzilalarning eng kuchsizi bilan tenglashadi. Yer sharida sodir bo'ladigan zilzilalar soni yil davomida bir necha yuz mingga yetishi mumkin. Shulardan aksariyat ko'pchilik qismi seismograflargina sezadigan kuchsiz zilzilalar bo'lib, odamlar sezadiganlari bir necha mingga yetadi. Xalq xo'jaligiga zarar yetkazadigan zilzilalar esa bir necha o'ndan bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin. Bir yil davomida sodir bo'lgan hamma zilzilalar natijasida taxminan 0,510¹⁰ J kinetik quvvat ajralib chiqadi. Bu quvvat miqdori juda katta bo'lishiga qaramay, yer qa'rida sodir bo'ladigan jarayonlardan ajralib chiqadigan umumiy quvvatning 0,5 foizigina tashkil etadi.

D. SA'DULLAYEV,

Buxoro shahar FVB kichik inspektori, oddiy askar

NES-NOBUD QILMAYLIK

Paxtakorlarning samarali mehnatlari natijasida joriy yilda mo'l-ko'l hosil yetishtirayotganlari ayon bo'lmoqda. Tumandagi fermer xo'jaliklari paxtani nes-nobud qilmasdan yig'ishtirib olish, qo'yilgan rejani ortig'i bilan bajarish, yuqori hosildorlikka erishish uchun butun imkoniyatlarini ishga solmoqdalar. Paxtani yig'ib olishda qatnashadigan ishchi-xodimlari, shuningdek, birlashtirilgan yong'in xavfsizligi va ichki ishlar xodimlariga dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Endigi asosiy vazifa esa oq oltinni qisqa fursatda yig'ishtirib olishdan iboratdir. Shu bilan birga, yig'ishtirib olingan paxta dalalaridagi yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishni aholi o'rtasida tuman FVB xodimlari tomonidan profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Har bir inson profilaktik tadbirlarga befarq qaramasligi va yig'im-terim mavsumini yaxshi o'tkazishiga o'zining hissasini qo'shishi lozim.

D.KO'MAKOV,

Buxoro shahar FVB inspektori, kapitan

XAVFSIZLIK TALABLARI

Viloyatimizda yangi bino-inshootlar, mehmonxonahlar hamda tad-birkorlar tomonidan ko'plab korxonalar qurilmoqda. Bu kabi korxonalar va xonadonlarni qurilishlarida yong'in me'yor qoida-talablari bajarilmoqdam? Qurilish maydonchalarida vaqtinchalik foydalanish uchun yo'llar, suv manbaalari va dastlabki yong'in o'chirish anjomlari bilan ta'minlan-ganmi? Ana shunga o'xshash savollarga javob olish maqsadida favqu-lodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan tekshiruvlar olib borilmoqda. Nazoratchilar tomonidan nafaqat qurilish maskanlari, shuningdek loyiha institutlari tomonidan loyihalashtirilayotgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o'tkazilib, borilmoqda. Quruvchilar, gaz hamda elektr payvand-chilar bilan favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi bo'yicha mash-g'ulotlar doimiy ravishda o'tkazib borilmoqda. Qurilish davrida asosiy e'tibor yong'in o'chirish suv olgichlar va ularga suv bosimini ko'tarib berish uchun nasos stantsiyalarning qurilishiga, ichki yong'in o'chirish jo'mraklari o'rnatilishiga yong'indan avtomatik darak berish moslamalari o'rnatilib, ularning qabul qilish apparatlari doimiy odam bor joyda o'rnatilishi va zahira evakuatsiya eshiklarning qoida asosida o'rnatilishi, elektr o'tkazgichlar PUE qoidasi talablari asosida o'tkazilishiga, binolarning tomiga favqulodda vaziyatlar bo'limi yong'in qutqaruvchilarining chiqishi uchun narvonlarning o'rnatilishiga qaratilmoqda. Qurilish tashkilotlari rahbarlari tomonidan qurilish maydonchalarida vaqtinchalik yo'llar qurilishi, maydonchalar suv manbaalari bilan ta'minlanishi kerak.

M.JUMAEV,

Buxoro shahar FVB inspektori, leytenant

UYINGIZNI YONFINDAN ASRANG

Fuqarolarimiz yashash uylarida yong'in xavfsizligi qoidalarga qat'iy va doimiy amal qilishlari bo'yicha targ'ibot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Gaz pechlarining dudbo'roni sozligi yong'inga qarshi kurash jamiyati mutaxassislari ko'rigidan o'tkazilmoqda. Qoidalarga xilof ravishda o'tkazilgan vaqtinchalik elektr tarmoqlarini olib tashlash va tom chordoqlaridagi elektr tarmoqlarini temir quvurlari ichidan o'tkazish shart. Bostirma yoki yozgi oshxonada o'rnatilgan tandir oldida o'tin zahirasi, bir marotaba ishlatiladigan o'tin hajmidan oshmasligini ta'minlash kerak. O'rnatilgan tandirning og'zi ustidan alanga va tutunni so'rib oladigan metall qalpoq o'rnatish kerak. Xonadonlarda maishiy ehtiyoj uchun tez yonuvchi benzin qattiq og'zi yopiladigan temir idishlarda saqlash lozim. Uy oldidagi yo'llarda maxsus xizmat avtomashinalarining harakatlanishiga to'sqinlik qiluvchi har xil turdagi temir, beton to'siqlarni o'rnatmaslik lozim. Isitish tarmoqlarini yoqilgan holda, nazoratsiz qoldirmaslik, ularga yaqin masofada yonuvchi uy jihozlari o'rnatmaslik kerak. Yosh bolalarga gaz va elektr tarmoqlaridan foydalanish hamda gugurt bilan o'ynashga yo'l qo'yimaslik hamda elektr tarmog'iga bir vaqtning o'zida bir nechta elektr uskunalarini ulab foydalanish mumkin emasligi haqida qat'iy tushunchalar berilmoqda. Yurtdoshlarimiz ana shu yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilsalar, o'z xonadonlarini yong'indan asragan bo'ladi.

H.SHUKUROV,

Buxoro shahar FVB kichik inspektori, katta serjant

PROFILAKTIK TADBIRLAR

Viloyatimizda aholini va huxudlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish maqsadida profilaktik tadbirlar o'tkazish davom etmoqda. Jondor tumani hududida joylashgan ko'p qavatli uylarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan noxush holatlar va gaz-havo aralashmasining chaqnashi kabi baxtsiz hodisalarni oldini olish maqsadida ko'p qavatli uylarda yashayotgan aholiga tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Xonadonlarning ayrimlarida gaz isitish moslamalari, dudbo'ronlarning qoida asosida o'rnatilishi va yong'in xavfsizligiga rioya etishlari yuzasidan profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Aholi tomonidan gaz plitalari ustiga kiyim quritish, gaz quvuriga rezina shlanglar orqali ulanish, qo'lbola isitish pechidan foydalanish, zontlarni o'rnatmaslik va dudbo'ronlarni asosiy havo almashish tizimiga ulash holatlari va yosh bolalarni uyda qarovsiz qoldirish holatlari uchrashi achinarli hol, albatta. Bu holatlar takrorlanmasligi uchun targ'ibot ishlari tumanimizdagi barcha aholi xonadonlarida uyma-uy yurib, qishloq faollari va ko'cha oqsoqollari bilan birgalikda hamda tuman elektr korxonasi, yong'indan saqlash bo'limi va hudud gaz ta'minoti idoralari xodimlaridan iborat ishchi guruh tomonidan har kuni profilaktik ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad, insonlarni hayoti va mol-mulkini asrash va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar, favqulodda vaziyatlarni oldini olishdir.

U.JAMOLOV,

Buxoro shahar FVB kichik inspektori, oddiy askar



ELNING MO'TABAR AYOLI

Har qanday muvaffaqiyatli erkak ortida kuchli ayol turadi, deydi donishmandlar. Darhaqiqat, o'zbek she'riyatida o'z o'rni va mavqeiga ega, ustoz ijodkor G'ulom Shomurodovning hayotda va ijodda erishgan yutuqlarida u kishining ayoli Mavjuda Shomurodovning beqiyos hissalarini bo'lgan.

Har gal ustoz bilan suhbatda bo'lganimda domla menga "Yangangiz meni birinchi adabiy tanqidchim, u kishi adabiyotni juda yaxshi tushunadilar", der edilar. Darvoqe, Mavjuda Shomurodova Jondorning birinchi hokimi Tesha Salimovning kenja qizlaridir. Mavjuda opa 1939 yilning 7 avgustida tavallud topgan. Ziyoli oilada ulg'aygan. 1959-1989 yillar davomida tuman-dagi 1-maktabda bolalarni savodini chiqarishdek savobli va xayrli ishdan charchamadi.

Umrini, bor bilimni, ko'z nuri qalb qo'rini shu ishga bag'ishladi. Jonkuyar ustoz tarbiyalagan o'quvchilar hayotning turli jabhalarida faoliyat ko'rsatib, el nazariga tushdi. Mavjuda Shomurodovning bu kabi fidoyiligi, bolajonligi, eng avvalo o'z ishiga bo'lgan talabchanligi uni hayotda munosib o'rin egallashiga sababchi bo'lgan nazarimda.

Mavjuda opa turmush o'rtog'i, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir G'u-

lom Shomurodov bilan birgalikdagi oltmish ikki yillik turmushlari davomida olti nafar farzandni ulg'aytirib, oliy ma'lumotli qilishdi. Bugun bu ibratli, ko'plab insonlar havas qiladigan oilada tarbiyalangan Munavvar, G'olib, G'ayrat, Hilola, Zilola, Sur'at Shomurodovlar vatan ravnaqi uchun astoydil xizmat qilib, xalq xizmatiga kamrasta bo'lishayotir.

Men shogird sifatida G'ulom Shomurodovning xonadonlarida ko'p bo'lganman. Bunday paytda Mavjuda opaning pazandaligi, chevarligiga takror-takror guvohman. Ayniqsa, u kishining tandirda pishirgan katta, mazali nonlarini ko'rib havasim ortgan. Mavjuda opada chinakam o'zbek ayolining nazokati, orastaligi, oila-parvarligi, mehmondo'stlik fazilati namoyondir.

Qolaversa, u kishining samimiy, dilkashligi, ochiq chehrasi, yo'qlab kelganlarga doimo yaxshi muomala va mulozamatda bo'lishi bu xonadondan mehmonlar arimasligiga sababdir.

Garchand, bugun ustoz G'ulom Shomurodov oramizda bo'lmasalar-da, u kishi yaratgan adabiy bog' gullab-yashnayveradi. Binobarin, xonadon ahlining har bir yig'ini o'z-o'zidan ma'naviy-ma'rifiy, ijodiy mavzularga borib taqaladi. Ustoz vafotidan so'ng farzandlarining sa'y-harakatlari bilan uning "Buyuklar qadri" nomli kitobi nashr etilgani fikrimizning yorqin dalilidir. Bu esa ustoz ruhi barhayotligidan dalolat beradi.

Har gal bu tabarruk xonadonga borar ekanman, ustoz ruhi kezib yurganini his etaman.

Bugun esa 85 yoshni qarshilagan, davlatimizning yuksak "Mo'tabar ayol" mukofoti sohibasi Mavjuda opaga uzoq umr, mustahkam sog'lik, oilaviy xotirjamlik, farzandlar, nabiraberalar baxtu kamolidan shodlanib, barchamizning duogo'yimiz sifatida sog'-salomat yurishlarini tilab qolaman.

Gavhar FOZILOVA,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi



MUSOHIBIM QALAM

*Oh ursam, ohlarim tinglaguvchimsan,
Qalbm og'riqlarin she'rga bitguvchi
Ravzam ichra mening*

kuylaguvchimsan,

Mening musohibim o'zingsan qalam.

* * *

*Menga Irshod etgan hamrohim o'zing,
Sehrgarlar yanglig' o'ziga tortuvchi.
Fusaholik qilgan dilimda so'zing,
Mening musohibim o'zingsan qalam.*

Dildora UKTAMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Koson
tumani 33-maktabning
10-sinf o'quvchisi



Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlangan "Eng ulug', eng aziz" an'anaviy respublika ko'rik-tanlovining Buxoro viloyati bosqichi g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Tanlovning ushbu bosqichida viloyatda faoliyat olib borayotgan OAV vakillari, yozuvchi va shoirlar, kino va tasviriy san'at namoyandalari, foto va dizayn ustalari "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan materiallari — asarlari bilan ishtirok etdi.

Tanlov O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi bosh tashkilotchiligidagi viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, madaniyat boshqarmasi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi, Badiiy akademiya viloyat bo'limi, Respublika "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi viloyati bo'limi, viloyat teleradiokompaniyasi hamkorligida o'tkazildi.

Taqdirlash marosimida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Buxoro viloyat bo'limi raisi v.b Shamshod Ochilov va viloyat Madaniyat boshqar-

BUXORODA "ENG ULUG', ENG AZIZ" KO'RIK-TANLOVI G'OLIBLARI TAQDIRLANDI

masi boshlig'i Sherzod Tilavovlar ishtirok etib, barchani bayram bilan tabrikлади va g'oliblarni taqdirladi. Ta'kidlash lozimki, tanlovda 7 yo'nalish bo'yicha 50 nafardan ziyod ijodkor ko'plab ijodiy ishlari bilan qatnashdi. Yakuniy natijaga ko'ra, ulardan 30 nafari g'olib va sovrindorga aylandi.

Jumladan, bosma ommaviy axborot vositalari xodimlarining ijodiy ishlari nominatsiyasida "Xalq so'zi" gazetasining Buxoro viloyati bo'yicha muxbiri Istim Brohimovning materiallari e'tirof etildi.

Televidenie va radio ijodkorlarining materiallari nominatsiyasi bo'yicha Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi muharriri Maqsuda Jumaeva, viloyat teleradiokompaniyasi ovoz rejissyori Umid Rasulov, "Istiqlol" TV muxbiri Madrahim Turdiev, tasviriy san'at, foto asarlari va dizayn ishlari nominatsiyasi bo'yicha dizaynerlar Sherzod Shodiev va Bexzod Hakimov, fotomuxbir Toxir Istatovlar tanlov g'oliblari bo'ldi.

Tanlov g'oliblariga diplom va viloyat hokimining qimmatbaho sovg'alari topshirildi.

**O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi
Buxoro viloyati bo'limi**



MARSIYA

(Zebo Anvarova ustoini xotiralariga)

Tabassum ila xayollar olib,
Dillarga ilm urfonin solib,
Ish sabab ba'zida charchab, xop horib,
Jilmaygan yanoqlar biroz toldimi,
Ustoz, diydor qiyomatga qoldimi?

Ikki alp ogil-u tanho bir qizni,
Ulgaytirib kelajak avlod, gulyuzni,
Nahot ular izlab topolmas sizni,
"Onajon", deb ular bo'zlab toldimi,
Ustoz, diydor qiyomatga qoldimi?

Kun kelib, yigildi barcha qarindosh,
Qizingiz, singlingiz, jigaru qondosh,
Yo'qligingizga ham berishib bardosh,
Alloh gulchin ekan, gulin oldimi,
Ustoz, diydor qiyomatga qoldimi?

Hayot charxpalak, o'tadi sekin,
Hech narsa hisobsiz bo'lmaydi tekin,
Shu so'zni qayta aytaman sekin,
Sizni suvgan dillar yig'lab toldimi,
Ustoz, diydor qiyomatga qoldimi?

Mayin so'zlaringiz dilga edi tor,
Barchaga mehribon, bo'lib beozor,
Hatto sizdan go'zallik olgandi bahor,
Ushbu go'zallik payxon bo'ldimi,
Ustoz, diydor qiyomatga qoldimi?

YANGAJONLAR

Doim bizga bo'lgan bosh,
Shahlo kozli qalamqosh,
Ovsinlarga maslakdosh,
Yangajonlar bor bolsin!

So'zlashlari muloyim,
Hur go'zal, mohlaroyim,
Yuzga kirsinar ilohim,
Yangajonlar bor bo'lsin!

Amakimni boy qilgan,
O'chogini moy qilgan,
Kelinlarni jam qilgan,
Yangajonlar bor bo'lsin!

Ro'zgorim deb ishlagan,
Dardni tishga tishlagan,
Nafaqa yoshin ushlagan,
Yangajonlar bor bo'lsin!

"Kelinmullo" sozlari,
Chaqmoq, munchoq kozlari,
Kulib yursin yuzlari,
Yangajonlar bor bo'lsin!

Jam bolib yuring doim,
Sizni asrar Allohim,
Yuzga kiring ilohim,
Yangajonlar bor bolsin!

Keksayganda ham doim,
Safingiz buzilmasin.
Ashurovlar zanjiri,
Hech qachon uzilmasin.

Sabina HABIBOVA,
G'ijduvon tumanidagi 46-maktab
geografiya fani o'qituvchisi,
"Ezgulik" muxbiri

Opa-singil ijodkorlar

MENING IJODIMDA MUSTAQILLIK MADHI

Biz maktabda ilk qadam tashlaganimizdan ustozlar tomondan harflar bilan orgatiladigan birinchi narsa Vatanning qaysi? Poytaxtimiz nomi, Prezidentimiz kim? Davlat ramzlarimiz nomlari kabilardir. Ustozlar yoshlikdan vatanni yurakka jo qilishni o'rgatishadi. Mana vatanimiz mustaqilligiga ham 33 yil bo'ldi. Bu vaqt mobaynida qanchadan-qancha ishlar, islohotlar amalga oshirildi. Ona yurtimiz - O'zbekiston o'zining mustaqil davlat bo'lgani, taraqqiyot yo'lini boshlaganiga 33 yil to'ldi. Biz shu vaqt ichida qadr-qimmatni anglash, mustaqil hayot kechirish, huquqiy davlatni tiklash, huquqiy jamiyatni barpo etishni o'rgandik. Mustaqillik bizga huquq va erkinliklar berdi.

Ko'hna tarimiz, dinimiz, boy merosimiz, urf - odat, an'analarimiz, adabiyot va ozligimizni qayta tikladik. Davlatlararo mehr-oqibat, bagrikenglik, hamjihatlik kuchaydi. Vatani taqdiri va kelajagi uchun yuragimiz tub-tubidan vatani hissi barq urdi. Mustaqillikka erishgach fidokorona xizmat ko'rsatgan, yoshlarga o'rnak bolgan xalqimiz shon-shuhrati uchun jonini ayamagan buyuk shaxslar Prezidentimiz tomonlaridan munosib taqdirlanilar. Mustaqillik bizga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Mustaqil yurtida islohotlar natijasida o'z davlat ramzlarimizga birin-ketin ega boldik. O'sha yillarda olib borilgan ishlar natijasida chegaralar daxlsizligi, jamiyatimiz tinchlik l-osoyishtaligi, xalqlar ortasida mehr-oqibat, totuvlik, diniy bagrikenglik muhiti kuchaytirildi.

Vatani - ona kabi muqaddas. Mustaqil yur-timiz doim gullab-yashnash, yoshlar esa yurt uchun yangi-yangi sohalarda bayroqni baland ko'tarishlar. Hozirda sport, zamonaviy texnika, texnologiya, kompyuter, iqtisodiyot, dizayn va boshqa sohalarda yoshlarimiz o'zlarini sinab kelishmoqda.

Farmon bilan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi amalga oshirildi.



Maxsus komissiya tashkil qilindi.

Har qanday g'oya, kelajakka bo'lgan ishonch va jamiyat kuchi bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin. Mustaqillik bizga ko'p narsa berdi. So'z erkinligi, mustaqil kasb-hunar tanlash kabi. Diyorimiz ko'p joylarida, masalan, Buxoroda ham qator kop qavatli uylar qurilmoqda va oz egalariga topshirilmoqda.

Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, ta'lim sifatida katta e'tibor berilmoqda. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: "Mamlakatni sportchilik hech qaysi soha tez tanita olmaydi".

Darhaqiqat, yaqinda o'zbek dzyu-dosida O'zbekiston delegatsiyasi Parij-2024 yozgi Olimpiya o'yinlarini oltin medal bilan boshladi. Mahoratli dzyudochimiz Diyora Keldiyorova galabaga erishdi. Shunday ekan, tinch-totuv O'zbekistonimizga, musaffo osmonimizga ko'z tegmasin. Har doim, har jabhada davlatimiz bayrog'i ko'klarga kotarilsin.

Go'zalxon HABIBOVA,
Buxoro viloyati, Gijduvon tumani

SOLIHALAR

Kalta kiyim kiyimagan,
Ro'mol boshdan tushmagan,
Ibosini saqlagan,
Solihalar ko'paysin.

Ota qadri bilishgan,
So'zin quloq ilishgan,
Xizmatini qilishgan,
Muslimalar ko'paysin.

Doim qiladi duo,
Yerda farishta go'yo,
Tush emas, chindan ro'yo,
Farishtalar ko'paysin.

Qiz bola ota yuzi,
Oilaning gulyuzi,
Yerda farishta ozi,
Sarishtalar ko'paysin.

9-"B"ning QIZLARI

Kulib turar yuzlari,
Misli quyosh ko'zlari,
Shirinsuxan so'zlari,
9-"B"ning qizlari.
Ustoziga yelkadosh,
Bir-biriga chin sirdosh,
O'tirishar partadosh,
9-"B"ning qizlari.

Qo'lidan tushmas kitob,
Ilmi kon, misli oftob,
Miyada qilar hisob,
9-"B"ning qizlari.

Islamlari yarashgan,
Sochlarini tarashgan,
Do'st qadri bilishgan,
9-"B"ning qizlari.

Har bir yumushda faol,
Go'yoki misli shamol,
Qoshlari emish kamol,
9-"B"ning qizlari.

ONAM

Og'rinsam gar tunda bedor bo'ldingiz,
Sog'likni ham chetga surib qo'ydingiz,
Biz uchun hayotga kulib qo'ydingiz,
Mehri beminnat, munisam onam.

Yig'lasam yig'lab, kulsam kuldangiz,
Istagingim darrov shaylab qo'ydingiz,
Bizlarni jondan ham ortiq suydingiz,
Mehri beminnat, munisam onam.

Barcha dardlarimga o'zingiz darmon,
Siz sabab dilimda qolmas hech armon,
Mehr sahosida siz ulug' sarbon,
Mehri beninnat, munisam onam.

Sanobar XABIBOVA,
Gijduvon tumanidagi 10-maktabning
10-"B" sinf o'quvchisi

«EZGULIK»

Muassis:
«Ma'naviyat
sarchashmasi»
MCHJ

MUHARRIR:
Obid QO'LDOSH

Gazeta
«EZGULIK»
tahririyati kompyuter
markazida sahifalandi.

Navbatchi muharrir:
Hamzabek
TURDIYEV

Musahhih:
Nafosat TOTLIYEVA

Sahifalovchi:
Mubina
TOYIROVA

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar muallifga
qaytarilmaydi. Mualliflar
fikri tahririyat nuqtai
nazaridan farqlanishi
mumkin.

Gazetada internet
materiallaridan foydalanildi.

Tahririyat manzili:
Buxoro shahri, A.Temur ko'chasi, 25-uy.
Telefon: (99)700-25-04

Elektron gazeta 2023 yil 23 yanvarda
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №41930465 raqam
bilan ro'yxatdan o'tgan.